

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI⁹
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI”
TA'LIM YO'NALISHI

4-bosqich bitiruvchi talabasi
QURBONOVA SHAHNOZA ALIDJONOVNANING

5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

“RANGLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI”
MAVZUSIDA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar:

M. X. Yurdanidze

Andijon 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	1-7
I.BOB. Ranglarning inson tarixida tutgan o'rni.	8-16
1.1 Rangtasvirda kompazitsiya masalalari.....	17-26
1.2Ranglarning inson hayotiga psixologik ta'siri.....	27-41
II.BOB. Ta'lim tizimida rangshunoslik fanini o'qitish	
jarayonlari.....	42-53
2.1Tasviriy san'at darslarida ranglarning yangi pedtexnologiyalar orqali o'tish usullari.....	54-59
2.2 .Tasviriy san'at turlari. Animalistik janr va unda "Ranglarning inson hayotida tutgan o'rni" mavzusida kompazitsiyaning bajarilish bosqichlari.....	60-70
Xulosa.....	71-72
Ilovalar.....	73-75
Foydalanilgan adabiyotlar.....	76-77

“Albatta, ta’lim –tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni halq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin ta’lim- tarbiya tizimini va shu asosda ongni o’zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo’lmaydi.”

ISLOM KARIMOV.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy ong shakllaridan biri - san’at-tabiat va jamiyatda bo’lgan, bo’layotgan va bo’ladigan voqea-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodadanishidir. Tasviriy san’at o’zida moddiy olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildiririshda muhim vosita bo’ladi va ularni siyosiy, ahloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo’lib xizmat qiladi. San’at voqelikning o’zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko’ra tasviriy san’at, me’morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo’linadi. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog’oz yuzasida, devor yuzasida va xokazolarda) aks ettiradigan san’at tasviriy san’at deb ataladi.

San’atkor real borliqni o’z asarlarida tasvirlar ekan, u hech mahal uni mexanik ravishda ko’chirmaydi. Aks holda u yaratgan san’at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo’lmay qoladi. San’atkorning vazifasi oliyroqdir. U hayotda mavjud bo’lgan voqea va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o’zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, ijtimoiy hayotda sodir bo’layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o’z munosabatini

bildiradi, hukmini chiqaradi. Masalan, rassom biror shaxsning rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi.

Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. Tasviriy san'at deyilganda, grafika, rang tasvir, haykaltaroshlik san'ati tushuniladi. Me'morchilik va dekorativ-amaliy san'at asarlari ham qisman tasviriy san'atga kiradi. Haqiqatda esa ularda mavjud borliq tasvirlanmaydi. Lekin bu san'at asarlarida ijodkorning maqsadi, fikri, xis-tuyg'u, orzu istaklari o'z aksini topadi. Demak, ijodkorning dunyoqarashida ma'lum miqdorda davr ruhi va mazmuni o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda me'morchilik va amaliy san'at buyumlari ham tasviriy san'at sifatida qaraladi. Tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin shu bilan birga ulardan har birining o'ziga hos tasviriy uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari ularning har biri ishlatilish o'rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator tur va janrlarga bo'linadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya janrida san'at asari yaratishning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi. Tasviriy san'atda—rassom (haykaltarosh va boshqa) g'oyasini aniq ifoda etish vositasi bo'lib, unda ijodkorning mahorati yorqin namoyon bo'ladi. Kompozitsiya orqali muallif chiziq, shakl, rang va obrazlarni tartibga keltiradi, fazoviy kenglikni o'zlashtiradi va badiiy muhit yaratadi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik, shakl aniqligi va ularning o'zaro uyg'unligi tashkil qiladi. Ijodkor yaratgan har bir asarining asosida kompozitsiya yotadi, unda borliqni idrok etish jarayonida hosil bo'ladigan fikr, his-tuyg'ular o'z aksini topadi. Kompozitsiyaning "turg'un" va "dinamik", "ochiq" va "yopiq" xillari mavjud. Kompozitsiya tuzish ma'lum "qonun" (kanon)lar bilan belgilangan va chegaralangan. Bu esa kompozitsiya ifoda vositalarining torayishiga olib kelgan. Uyg'unish davrida "turg'un" va "yopiq" kompozitsiya, barokko san'atida "dinamik" va "ochiq" ustuvorlik qilgan. San'at tarixida qonunlarga bo'ysunib

yaratilgan kompozitsiyalar va erkin kompozitsion usullarga asoslanib kompozitsiya yaratish harakatlari birday muhim rol o'ynagan.

O'zbekiston tasviriy san'atining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiy va ijodiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. "Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, ilmiy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmoqimiz kerak."¹ Shu maqsadda Respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, umuminsoniy qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. San'at, xususan tasviriy san'at istiqlol davrida mafkuraviy - g'oyaviy, ma'naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlarga plakat kabi tashviqot - targ'ibot vositalariga o'xshab tezkorlik bilan javob bera oladigan ijodiy targ'ibotlaridan kelib chiqqan holda davom etmoqda.

Ko'p asrlik tarixga ega O'zbekiston tasviriy san'atida kompazitsiya janrida yaratilgan san'at asarlari murakkab va serqirra badiiy obrazli tizimdir.

Boshqa tasviriy san'at turlari kabi kompazitsiya janri ham doimiy rivojlanishda. Ushbu janrning psixologik xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, tasviriy san'at tarixini kundan-kunga yangi ma'lumotlar bilan boyitmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni muxtasarlab quyidagilarni ta'kidlash joiz.

Milliy istiqlol tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliy ma'naviy-madaniy yangilanishida o'ziga xos yo'lni tanladi va bu jarayon yurtboshimiz I.A.Karimov

¹ "Xalq ta'limi" jurnali 1992 yil, 10-12 son 1-bet.

rahnomoligida bosqichma-bosqich davom etmoqda. Shunday ezgu maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish, yurt taraqqiyotini ta'minlash, yoshlar qalbiga va ongiga milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Shunday ekan, har bir jamiyatning ijodkor qatlami o'zining o'rinbosarlari bo'lgan yosh avlodning kelajagi uchun qayg'urishi va g'amxo'rlik qilishi zarurdir. Ajdodlarimiz yaratgan buyuk san'at asarlari, madaniy-ma'rifiy boyliklar xalqimiz, ayniqsa yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai- nazardan ushbu bitiruv malakaviy ishida tasviriyl san'at asarlarida "Ranglaining inson hayotida tutgan o'rni" mavzusida kompozitsiya ishlashni keng miqyosda o'rganib, ta'lim jarayonlarining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida o'quvchi – o'quvchilarni ushbu animal janrda asar yaratish orqali tabiatni, ekologiyani, shuningdek, atrof-olamimizni o'rab turgan jamiki tabiat unsurlarini asrab-avaylash bilan birga ulardan bahra olish san'atiga ega bo'lishni taklif qilinadi.

Tanlangan mavzuning dolzarbiligi shundaki, kompozitsiya janrida yaratilgan asarlar Mustaqillik yillariga kelib, san'at darajasida yuqori mavqega erishib borayotganligiga qaramasdan bugunga qadar ushbu san'at turi va unda ijod qiluvchi usta rassomlar ijodi ilmiy jihatdan o'quv mashg'ulotlarida ilg'or texnologik yondashuvlar asosida o'rganilmagan. Ushbu san'at turi borasida dars jarayonida yangicha pedagogik yondashuvlar asosida nazariy ma'lumot beruvchi manbalar yo'qligi rassomchilikning ilmiy-ijodiy, nazariy va amaliy ahamiyati sust darajadaliigidan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda ushbu sohani keng qamrovda namoyon etuvchi ilmiy manbalarni ommaga joriy etish masalalarini taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko'rinadiki, o'zbek xalqining qadimdan shakllangan rassomchilik san'ati o'zining xilma-xil turlari bilan bir-biridan alohida ajralib turadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishim mavzusini tasviriy san'at darslarida "Ranglarning inson hayotida tutgan o'rni" mavzusida kompozitsiya ishlash deb nomladim. Ushbu mavzuni hozirgi zamon o'quvchilariga to'la javob bera oladigan darajada tashkil etiladigan, pedagogik texnologiyalarga yondashgan holda keng yoritib berish, mavzuni o'quvchilarga pedagogik jarayon doirasida ochib berish ayni malakaviy bitiruv ishining dolzarb masalasidir.

Yuqorida zikr etilgan fikrlardan shuni ta'kidlash mumkinki, buyuk davlatning bugungi istiqbolini madaniyat va ma'naviyat haqida guvohlik beruvchi san'at muassasalarisiz tasavvur etish qiyin. Binobarin, Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kitobida to'g'ri ta'kidlaganlaridek: «Biron- bir jamiyat ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».² Demak, san'at muassasalari – ma'naviyat va madaniyat manbai ekan, ulardan xalqimizning ma'naviyatini, madaniyati va san'atini ko'tarishda ta'lim jarayonlaridan samarali foydalanish bugunning dolzarb vazifasidir.

Mavzuning o'rganilganligi. Ko'p yillik pedagoglik faoliyati mobaynida qalamtasvir va kompozitsiyadan mukammal o'quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya hayot hodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bo'lib o'quvchilardan ma'lum formatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o'tish prinsiplarini qo'ydi. Keyinchalik kompozitsiyani nazariyasi, amaliyoti va ularni o'qitish metodikasini asosiy prinsiplarini ishlab chiqishda V. Favorskiy, A. Deyneka, K.Yuon, E.Kibrik, A.Alpatov, G.Nisskiy, F. Reshetnikov, D. Shmarinov kabi ulug' rus rassomlari o'z hissalarini qo'shdilar.

Bularning ichida K.Yuon, A. Deyneka, E. Kibrik, M. Alpatovlarning qoldirilgan ijodiy va ilmiy nazariyasi tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinli.

Kompozitsiya nazariy asoslarni rivojlantirishda salmoqli hissa qo'shgan rassomlardan yana biri Konstantin Yuondir.

² I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka taxdid, barqarorlik sharlari va taraqqiyot kafolatlari». T. «O'zbekiston», 1997.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Mavzuning maqsad va vazifalari yuqorida keltirilgan rassomchilikning ijodiy jarayonidagi davriy bosqichlarni o'rganib, bugungi kunga qadar rivojlanish jarayonini tadqiq etishini oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tasviriy san'at o'zining funktsional vazifasidan kelib chiqqan holda, birinchi bo'lib jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Tasviriy san'at va madaniyatning buyuk asarlari va rang manzarasida ishlangan kompozitsiyaga bag'ishlangan qator tasviriy san'at asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy g'oya va mafkuraning shakllanish jarayonida tabiatga mehr uyg'otuvchi san'at sohasiga aylandi.

Mavzuni yoritishda asos qilib olingan rang kompozitsiyasini ishlash keng qamrovda batafsil o'rganilishi va ilmiy adabiyotlarga yanada ko'proq kirgizilishi kabi masalalar ilm-fan oldidagi qator vazifalardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:

-“Ranglarni inson hayotida tutgan o'rni” mavzusida ishlangan kompozitsiya misolida animal janrida kompozitsiya ishlashni pedagogik zaruriyat sifatida o'rganish;

-“Ranglarni inson hayotida tutgan o'rni” mavzusida kompozitsiya ishlashda buyuk rassomlar ijodiy merosidan foydalanishga erishish;

-“Ranglarni inson hayotida tutgan o'rni” mavzusida ishlangan kompozitsiyani dars jarayonlarida o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanish.

Mavzuning amaliy, ijodiy ahamiyati. Mavzuning ob'ekti ya'ni “Qushlar manzarasi orqali ranglarni chizish” uchun ishlangan kompozitsiyani pedagogik texnologiyalar orqali yoritish.

Mavzuning predmeti. Mavzuning predmeti “Tabiat manzarasi orqali ranglarni chizish” mavzusida ishlangan kompozitsion asarining mazmuni, tasvirlash usuli va vositalari;

“Ranglarni inson hayotida tutgan o’rni” mavzusida ishlangan kompozitsiya yaratishda rassom pedagogning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishning pedagogik-psixologik asoslarni aniqlash.

Mavzuning ob’ekti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ijodiy ob’ekti tabiat manzarasida ishlangan kompozitsiyadir.

Mavzuning malakaviy yangiligi. “Ranglarni inson hayotida tutgan o’rni ” mavzusida ishlangan kompozitsiya orqali uning pedagogik muammolari birinchi marta yaxlit holda o’rganildi. “Ranglarni inson hayotida tutgan o’rni” mavzusida ishlangan kompozitsiyaning mazmuni to’lalgicha yoritib berildi.

I.BOB. RANGLARNING INSON TARIXIDA TUTGAN O'RNI.


Borliqni kuzatar ekanmiz, bizni qurshab turgan olam turli-tuman ranglardan iborat ekanligini ko'rib hayratga tushamiz. "Bu ranglarda qanchalik ma'no yotadi?" – deb o'yga tolasan. Asrlar davomida ajdodlarimiz, fan arboblari muayyan darajada ilmiy-tadqiqot ishlari, tajribalar o'tkazib kelishmoqda. Hozirda, hatto ba'zi rivojlangan mamlakatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar bu borada samarali faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Bu o'rinda Yaponiyaning Tokio shahridagi dunyoga mashhur rang institutini ta'kidlash mumkin. Yirik olimlar tomonidan rang tufayli ramziy ma'noda "so'zlashish", ranglar vositasida insonlarni davolash, tarbiyalash, ranglar jilg'asi orqali falsafiy fikr yuritish, rang orqali insonlarning ichki dunyosini anglash, shuningdek ranglarning qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirishda, iqtisodda va boshqa masalalarni ijobiy hal etishdagi mavqei haqida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o'rni, shifobaxshligi, tarbiyaviy, falsafiy va ruhiy tomonlari haqida juda ko'p ma'naviyat xazinalari qoldirib ketganlar. Ajdodlarimizni amaliy san'at turlaridan qoldirgan ma'naviy me'rosiga murojat qilsaq har bir buyum yoki bezak bo'lmasin, ularni shakli, rangi va xajmga ega. Masalan, o'sha bezakni rangi inson psixikasiga turlicha ta'sir etadi, bu ranglar o'ziga xos ramziy ma'noga hamda shifobiy xosiyatga ega bo'ladi.

Ranglar haqidagi fan juda qadimdan paydo bo'lgan. Inson rang sirlarini qadam-baqadam ochishga harakat qilgan. Paleolit davrida yashagan odamlarning ijodida ularning hayvonlar dunyosi, tabiat haqidagi tasavvurlari o'z aksini topgan. Bu tasvirlarda asosan ov manzaralari aks etgan. Qoyalarda faqat rangtasvir asarlarigina emas, balki grafik va bo'rtma qoya tasvirlari ham saqlanib qolgan. Ibtidoiy davrlardagi qoya rasmlari o'zining mukammalligi, hayvonlar anatomiyasi, harakatining, jun fakturasining aniq berilishi va obrazli

ta'sirchanligi bilan bizni hozirgi davrgacha lol qoldirib kelmoqda. Tasvirlar ma'naviy madaniyatimizni avloddan-avlodga yetkazishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.



Afrosiyob devoriy rasmidan parcha (V-VII asrlar)




Varaxsha saroyining “Qizil zal” devoriy rasmidan parcha (VII asr)

Antik davrlarda rassom dunyoni qanday ko'rsa o'shanday tasvirlashga harakat qilgan. Rangtasvir asarlarida borliqni tasvirlashning yangi imkoniyatlari paydo bo'ldi. Turar joylar, maqbaralar, ibodatxonalar va boshqa inshootlar rangtasvir asarlari bilan bezatilgan. U arxitektura va xaykaltaroshlik bilan badiiy, kompozitsiyani tashkil etgan.

O'rta asr rangtasviri diniy mazmunga ega bo'lgan roman davri va asosan gotika davrida san'at sobor uchun xizmat qilgan, shuning uchun ham rangtasvir asarlari bilan faqat soborlar bezatilgan. Undagi ranglarning jarangdorligi, asosan lokal ranglar ishlatilishi, konturlarining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Kartina va freskalarning foni shartli, neytral yoki tillarang bo'lgan, Ranglarning simbolikasi katta rol o'ynagan. Qadimdan sharq mamlakatlarida rang simbolikasi paydo bo'lgan va ularning barchasi Yevropa va Osiyoning rang madaniyatiga katta ta'sir qilgan. Shu davrlardan boshlab ranglardan juda keng miqyosda foydalana boshladilar. Ranglarning yagona simbolik sistemasi hech qachon

bo'lmagan, lekin asrlar davomida hammaga tushunarli bo'lgan aniq rang simvollari paydo bo'lgan. Qadimdan insonlar ranglarga katta ahamiyat bergan.

Tasviriy san'atda asarning fikriy-obrazli mazmunini ochib berishda rang muhim rol o'ynaydi. Antik davrda rang estetika kategoriyasi sifatida qabul qilina boshladi. Eramizgacha bo'lgan IV asrlardayoq qadimgi grek faylasufi Aristotel rang va rang hodisalarni aniqlashga harakat qilgan. O'rta asrlarda esa rangni o'rganish diniy nuqtai-nazardan qarab o'rganila boshladi.



Evropa uyg'onishi o'rta asrlardan diniy qobiqqa o'ranib qolgan rang muammosini ochib tashlaydi. Alberti va Leonardo da Vinchi dunyoga olim eksperimentator ko'zi bilan qarab, rang va yorug'likning o'zaro aloqasi qonuniyatlarini, qabul qilish, rang induktsiyasii va rang estetikasi qonuniyatlarini ochadi. Leonardo da Vinchi o'zining «Rang tasvir haqidagi traktatlar» nomli kitobida hozirgi davr rassomlari uchun ham zarur bo'lgan, katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni keltiradi.

U olti hil ranglardan iborat bo'lgan rang qatorlarini yaratib, ularni tabiat hodisalariga bog'lab ko'rsatadi: *oq*-yorug'lik, *sariq*- yer, *yashil*- suv, *ko'k* -havo, *qizil*-olov, *qora*-qorong'iliq va hokazo. Xar bir bo'lak ranglar uchun garmonik ranglar topilgan va turg'un rang akkordlari o'ylab topilgan masalan, *yashil* bilan *qizil*, yorqin *qizil* va so'lg'in siyohrang uyg'unlashadi. Olti hil rangli rang

qatorlari haqidagi fikrni F. Runge, A. Shopengauyer, U. Adame, E. Delakrua, Van Gog, V. Kandinski va boshqalar rivojlantirdilar.



Vincent Van Gog “Manzara”



Vincent Van Gog “Avliyo Remy”

Isaak N'yuton rangshunoslikni fizika nuqtai-nazaridan o`rganib chiqdi. U oq –yorug`likni ko`p rangli ekanligini isbotladi. Prizma orqali yorug`lik o`tkazib spektr ranglar hosil qilgan. Keyinchalik fransuz olimi Roje de Pil rangtasvirda rasm emas, balki rang katta ahamiyatga ega ekanligini isbotladi.

M.V.Lomonosov rangli ko`rish komponentliligi gipotezasini ilgari suradi. Bu gipoteza hozirgi davrda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. U inson ko`zida rangni his qiluvchi uchta priyomnik borligi va ular birgalikda faoliyat ko`rsatishiga e`tiborni qaratadi. Ikkita qo`shimcha ranglarni aloqasi uyg`un hissiyot hosil qiladi, chunki ulardan biri ikkita asosiy rang uchun muhim hisoblanadi. Shunday qilib har bir o`zaro qo`shiluvchi ranglar juftligida uchta rang bor bo`ladi.


Gyote rang garmoniyasi va ranglarning insonga ruhiy ta'siri haqidagi ta'limotini ishlab chiqdi. Runge uch o`lchamli rang sirti asosidagi printsiptini ilgari surdi. XX asrga kelib rangshunoslikda yirik kashfiyotlar qilindi. Uning asosida lazer, golografiya, kompyuter grafikasi yaratildi. Bu ilmiy izlanishlar

rangshunoslik, rangtasvirda maqsadli qo`llanilyapti va turli yo`nalishda ijod qiluvchi rassomlarning ijodiga o`z ta'sirini o`tkazyapti.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Komoliddin Behzod, Firdavsiy, Zaxiriddin Bobur kabi jaxonga mashxur olim, shoir, naqqosh, musavvir va boshqalar rang haqida uning turlari, nomlari, ramziy nomlari, inson sog`ligiga ta'siri shular haqida juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlar qilganlar. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Kitob al javoxir fi ma'rifat al javoxir" (Minerologiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlari oshgan. Sharqda olimu, shoirlarimiz, musavviru naqqosh xattot va boshqalar ranglarning yuzdan ortiq ranglarni ajrata olganlar hamda ularni nomini eng muximi har bir rangni ramzi va uning tilini bilganlar. Afsuski, yillar, asrlar o'tishi bilan hozirga kelib buning aksi bo'lib, asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma'nosi hamda ularning tili yo'qolib ketish arafasida turibmiz. Hozirda ranglarning nomini odamlardan nechta rangni sanab bera olasiz desangiz faqat 10 ga yaqinini sanab o'tishi mumkin. Bu esa yuqorida aytgan gapimizning dalili bo'ladi. Sharqda xalqimiz quyidagi ranglarni ajrata olganlar va ularning nomini bilganlar.

Xattoki olimlarimiz har bir ranglar nomini nima uchun qo'yilganligini o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Shu ranglar nomi bilan tanishib chiqamiz: *alvon, arg'uvon, bargikaram, binafsha, bug'doyrang, buz, gulgun, gunafsha, jigarrang, zangori, za'faron, zumrad, qaxrabo, kul rang, ko'k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nofarmon, ol, oq, pistamagiz, pistaki, pushti, sariq, safsar, somonrang, sur, firuza, uchoq kesak qizil, qirmizi, qopa, qora mag'iz, qoracha, qo'ng'ir, havo rang, anordona, aqiq, bayzogul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, danifa rang, jigari, jiyron, jo'ja, zaynovi, zar, zarchava, zarg'aldoq, zoq, kaptar bo'yin, krang, ko'k temir, lilovi, limurang, makaylik miynovi, novvot rang, nilobi, nimtatir, nim pushti, norgul, olov rang, olma talqon, oq upa suvi, sabzi rang, saman, sariq kesak siyo(h), sir, sovot, surma rang, tilla rang, tupori, turiq, to'ti yoyi, hamir rang, shaftoli guli, shingob, shinni,*

shol, qizil kemak qizg'aldoq, qovoq sariq, g'irko 'k g'oliya, hal, ha rang, azraq, akxob, alas, asali, asfar, arg'avoniy, axzar, aqrobi, ahmar, bayzo, baxromi, birjina, vardi, gulfom, damoviy, yoqutiy, jigargun, jimriy, zaytiy, zulmoni, kabidiy, kofir gul, kuxliy, la'lfom, lola gul, maxsar, miyno, muzaffar, mushkin, nabotiy, naftiy, nilgun, niliy, noranti, obgun, obrang, ob'yoz, obsun, oyna gul, osmoni, rayhoni, rind, rummoni, sabza gul, savod, savsan, samoviy, sandliy, sandarus, safro, saxar gul, siymagun, silqiy surmagun, tamriy, tibniy, tovusiy, tutagiy, usfuriy, utrujiy, urjvoni, falfoliy, xuniy, tabgun, shamgun, shafaqqun, shaqoqiy, shingirf, shirfom, qiyirgun, holiqiy, azraqvali, asfarvash, axzarvash, ahmarvash, safsarvish, usfur, zarg'aldoq, qizgaldoq, sarg'ilt, qizg'ilt, ko'kimtir, oqimtir, qoramtir, sarg'imtir, ko'kish, oqish, sarg'ish qizg'ish, rangpar, nilfom, norfom, ko'kcha, qoracha, oqchil, nomgil, damaviy, gulgun, lolagun, rayhoni, asali, jimriy, zatiy, yoqutiy, nafarmon, rummoni, baxramoni, zulmoni, gulobi, nilobi, za'faron, havorang, jigarrang va boshqalar.




Sharq san'atida rang har doim nixoyatda katta ahamiyat rol o'ynagan. Har bir rang o'ziga xos ramziylikka, falsafiy ma'noga ega bo'lgan. Bundan tashqari, ranglar orqali insonlarni da'volaganlar. Ota-bobolarimiz ranglarning hamma xususiyatlarini yaxshi bilganlar. Ular atrofimizni urab turgan tabiat ranglariga paydo bo'lganlari uchun zangori, lojuvard va yashil, ranglarni ayniqsa,

ko‘p ishlatganlar. Binolarning koshin va parchin sirlarini oftob nurida tovlanishini hamda atrofdagi ranglar bilan bog‘lanishini hisobga olib, munosib bo‘yoqlar tanlaganlar. Parchin va koshinlarda asosan lojuvard, zangori, yashil, sariq va oq ranglar ishlatgan. Ular osmon, er, terilgan pishiq g‘isht rangi bilan juda yaxshi bog‘langan. Xar bir rangning o‘z mazmuni va asoslangan manbai bo‘ladi. Ko‘m-ko‘k ya‘ni havo rang-ota bo‘yoq koinotini eslatadi. Yashil rang ona bo‘yoq er yuzidagi yam-yashil tabiat ramzidir. Ular aralashmasida hosil bo‘lgan ranglardan xuddi onalik va otalik mexri kelib turgandek tuyuladi.

Qadimgi Misrda bo‘yoq olish usulini yaxshi bilishardi. Qadimda mashxur bo‘lgan qirmizi rang faqat bir turdagi dengiz mollyuskalarining maxsus bezidangina olinardi. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bunday bo‘yoq juda qimmatga tushgan. Uning bir grammini olish uchun dengiz tubidan bir necha o‘n ming chig‘anoq olib chiqish lozim bo‘lardi. Shu boisdan u oltin bahosida qadrlanadi. Qadimgi Rimning mashxur notig‘i va siyosiy arbobi Sitseron imperator saroyida birinchi konsul edi. Xizmatlari e‘tirof etilishining belgisi sifatida u qirmizi rangga ikki marta bo‘yalgan matodan kiyim kiyardi. Misrning qadimgi mashxur malikasi Kleopatra (u Sharqda Klubatra nomi bilan tanilgan - red.) bebaxr boyligi tufayli aql bovar qilmaydigan ishlarni o‘ylab topardi..U xatto barcha kemalarning elkanlarini qirmizi rangga bo‘yashga farmon bergan. Bitta elkanni bo‘yash esa bir xalta oldinga tushardi.

Bo‘yoq olish tarixi ko‘pgina qiziq, ba’zida xatto ajabtovur, kulgili voqea-xodisalarga boy. O‘rta asrlarda bir necha kilogramm za‘faron bo‘yog‘i deb Italiya bilan Shvetsariya o‘rtasida urush boshlanib ketgan edi. Bo‘yoqlar shoxi - nil bo‘yoq (zangori rang) olish ham ajoyib tarixga ega. Qadim zamonlarda nil bo‘yoq Osiyoning tropik mamlakatlarida yashovchi bir xil daraxtning bargi va pustlog‘idan olinardi. Uni Evropaga VIII asrda arab savdogarlari olib borishgan, biroq, evropalik bo‘yoqchilar ularga qarshi chiqishib savdo qilishlariga yo‘l qo‘yishmagan. Evropalik bo‘yoqchilar matoni daryo bo‘yida o‘sadigan o‘smadan

olinuvchi ko'k rang bilan bo'yashardi. Biroq yillar o'tishi bilan har qanday taqiqlarga qaramay, nil bo'yoq yana ishlatila boshladi. Nemis ximigi Adolf Bayer o'n besh yillik tinimsiz izlanishdan keyin, bu bo'yoqning tarkibini aniqladi va 1882 yili uni sun'iy usulda olish yo'lini topdi. Oldingi sun'iy bo'yoq ancha qimmat turardi, keyin asrimiz boshlarida tabiiysiga qaraganda, uch marta arzoniga tushdi. Tabiiy nil bo'yoq sotuvchi savdogarlar inqirozga uchraganlaridan keyin cherkov orqali sun'iy bo'yoqni badnom etmoqchi bo'lishdi. Biroq nil bo'yoq yildan-yilga ko'plab ishlab chiqarilaverdi.



Prezidentimiz I.A.Karimovning "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kitobiga yozilgan so'z boshisida o'qtiriganidek "O'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdolarimizning me'rosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni xis etib yashash" mustaqil respublikamiz har bir fuqarosining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib qoldi. Shuning uchun Vatanimiz ilmi, madaniyati va qadriyatlari tarixini manbalar asosida chuqur, xolisona o'rganish va yoritishga bo'lgan intilish yaxshi samara bermoqda.

Qadimdan ajdodlarimiz yashayotgan maskanlariga, devoru toshlariga, idish—tovoqlariga ov jarayonlari, jangu-jadallar, bazmlar, yozuvlar, tantana marosimlar, turli hayvon, qush hamda o‘simlik va naqshlar bilan bezab kelganlar. Bundan tashqari bezaklarni yanada ta’sirchan kuchini oshirish uchun xalq xikmatlari, ulug‘ allomalarning pand-nasixatlari, turli ramziy ma’noda ifodalab kelganlar. Ular go‘zallikni yaxshi ko‘rganlar. Shuning uchun go‘zallik orqali insonlarga voqealiklarni tezroq etkaza olganlar. Bulardan tashqari fikr almashuv vositasi sifatida ramziy ifodalar, muayyan shakl va belgilarning muomalaga kiritilishi natijasida yozuv kelib chiqqanligi qadimdan ma’lum.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov "Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g‘ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri-katta bir darslikdir" deb ta’kidlab o‘tgan edi. "Ishora qilmoq" so‘zidan olingan bo‘lib tabiatni, voqealikni, hayotdagi quvonch va tashvishlar, do‘st va dushman, ezgulik va yovuzliklarni chiziq, rang va shakllar orqali ifodalashdir. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, Kamolliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jaxonga mashxur olim fuzalolarimiz, naqshdoshlarimiz binolarni kishilar xayolini o‘ziga tortuvchi, tabiatning go‘zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar.

I-BOB. I. RANGTASVIRDA KOMPAZITSIYA MASALALARI.

Insoniyat tashqi dunyoni tasvirlashga intilishi juda qadim zamondan ma'lum. Ibtidoiy davridayoq odamlar mamont suyaklarida, g'orlarda toshlardagi chizgilarda maxoratga erishganlar. Ular xayotni zehn bilan kuzatsalarda kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Ularning tasviriy san'at namunalari tasodifiy emas, balki ko'p yillik mehnat tajriba natijasi ekanligiga guvoh bo'lamiz. Qattiq jism inson qo'lida pichok shakliga kelguncha uzoq muddatli bosqichlarni, tarixiy voqealarni bosib o'tgan. Inson qo'li bilan xayot uchun zarur bo'lgan mahsulot asbob – buyumlarni shakli, jixati avloddan – avlodga, otadan bolaga o'tish natijasida o'zgarib bordi. Hayotda inson qo'li bilan murakkab mehnat jarayoni orqali yuqori malakaviy bosqichga erishildi va uning sehrigar kuchi Rafael asarlarida, Poganin musiqasida namoyon bo'ldi. Odamlar o'zlariga boshpana qurishni, uy jixozlarini yaratishni, shuningdek tasviriy san'at vositalarini birdaniga anglamadilar. Inson ming yillar davomida to'plagan tajriba asosida tabiat dunyosini, qush va xayvonlarni chizgilarda tasvirlay boshlagan. Jonli kuzatish natijasida rasm chizishni o'rgatish amalga oshirilgan.

Qalamtasvir va rang tasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojaat qiladi, uning qonun-qoidalarini bilmay turib kompozitsiya, qalam tasvir, rang tasvir mohiyatini tushunib etmaydi. Kompozitsiya (lot. compositio — tuzilish, birlashish, bog'lanish) — badiiy asarning mazmunan, harakteri va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarining joylashishi.

Tasviriy san'atda—rassom (haykaltarosh va boshqa) g'oyasini aniq ifoda etish vositasi bo'lib, unda ijodkorning mahorati yorqin namoyon bo'ladi. Kompozitsiya orqali muallif chiziq, shakl, rang va obrazlarni tartibga keltiradi, fazoviy kenglikni o'zlashtiradi va badiiy muhit yaratadi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik, shakl aniqligi va ularning o'zaro uyg'unligi tashqil qiladi. Ijodkor yaratgan har bir asarining asosida kompozitsiya yotadi, unda borliqni idrok etish jarayonida hosil bo'ladigan fikr, his-tuyg'ular o'z aksini topadi.

Kompozitsiyaning "turg'un" va "dinamik", "ochiq" va "yopiq" xillari mavjud. Kompozitsiya tuzish ma'lum "qonun" (kanon)lar bilan belgilangan va chegaralangan. Bu esa kompozitsiya ifoda vositalarining torayishiga olib kelgan. San'at tarixida qonunlarga bo'ysunib yaratilgan kompozitsiyalar va erkin kompozitsion usullarga asoslanib kompozitsiya yaratish harakatlari birday muhim rol o'ynagan. Uyg'onish davrida kompozitsiyani ilmiy asoslashga intilish kuzatiladi.

Tasviriy san'atning har bir turi o'ziga xos kompozitsion uslublarga ega. Masalan, kitob bezagi (rasm) mahobatli devoriy rassomlik kompozitsiyasidan farq qiladi. Shuningdek, kompozitsiyani idrok qilish ham turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, haykaltaroshlik asarlaridan relyefni faqat old tomondan ko'rish mumkin. Aksincha, mahobatli yodgorliklarni esa aylanib tomosha qilish lozim. Haykaltarosh asar yaratayotganda kompozitsiya qonunlarini e'tiborga olishi kerak. Tasviriy san'atda ko'p shakl (figura)li kartina va haykallar ham kompozitsiya deb ataladi.

Erta uyg'onish davrining vakillari Djotto va Mazachcho o'z ijodlarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya qonunlarini amalda qo'llab, kompozitsiya fanining bilimdoni ekanliklarini misolda ko'rsatdilar. Ular perspektiva yordamida kartinada chuqurlik, masofani tasvirini haqqoniy namoyon etishga erishishdi. Ko'p yillik kuzatuv va analiz natijasida ko'zga ko'ringan rassomlarning asarlarini g'oya tuzilishi, rang echimidagi ushlab, amaliy tajribalarini umumlashtirib Alberti "Rang tasvir haqida uch kitob" ilmiy nazariy meros yozib qoldirdi. Leonardo da Vinchi va Alberti o'z maqolalarida va badiiy asarlarida statik (harakatsiz) va dinamikaga (harakat) alohida ahamiyat bergan edi. Fransuz rassomi E. Delakrua o'z kundalik va ilmiy maqolalarida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, P. Rubenslarni kompozitsiyaga oid qonunlarini kengaytirib chuqur ma'nolar bag'ishlab davom ettirdi.



“Volxvovga ta’zim” 1426 Rafael. Berlin

XVI asr oxirida kompozitsiya o‘quv fani sifatida shakllana boshladi. Buni V. Neleng, S. Vasilev kabi metodistlarning Fransiya safaridan so‘ng o‘qitish tizimi haqidagi hisobotlari orqali bilish mumkin. 1882 yili taniqli pedagog - rassom Violie Le Dyukani «Tarixchining tarixi» kitobi rus tiliga tarjima qilgan edi. Bu kitob shaxsiy ish tajribasidan kelib chiqib, tasviriy san’at o‘qitish metodikasidan suhbat tarzida berilgan. Tasviriy san’atda kompozitsiya masalalari haqida dastlabki metodik bayonnoma muallifi amerikalik pedagog – rassom A.

Doudir. Bu o'quv qo'llanmada tasvirda har xil shakl, tuslarni qog'oz va matoga to'g'ri joylashtirish, qog'oz hajmi va formatiga alohida ahamiyat bergan.

Realistik san'atning buyuk namoyondasi I.E.Repin kompozitsiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muhim xissa qo'shdi. SHuningdek tarixiy janrda har tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V.Surikov rus rassomlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. U kompozitsiya eskizini bajarishga alohida ahamiyat berdi. Uylagan mavzu rassom tasavvurida tiklansa u darrov qo'lga qalam, ko'mirqalam, mo'yqalam olib eskiz bajarishga kirishardi. Ayniqsa «Boyarina Morozova» kartinasi uchun, o'nlab, yuzlab qalamlavha, ranglavha, eskizlar bajargan. U mavzuga oid bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni sinchiklab o'rganadi.



Ilya Efimovich Repin “Boyarina Morozova”

Kompozitsiya qonun - qoidalarini chuqur bilish, qobiliyatli ijodkor ongiga sayqal beradi. Etuk rassomlarning ijodiy tajribasiga va kompozitsiyani o'qitish uslubiyatiga asoslanib Badiiy Akademiya tomonidan 1960-64 yillari nashr etilgan 8 jildli «Shkola izobrazitelnogo iskustva» nomli metodik qo'llanma tasviriy san'at manbaini boyitdi. San'at asarlarini taxlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o'z mohiyatini asta – sekin yo'qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo'la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda

kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy – jamiyat san’at oldida yangi zamonaviy vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratib o‘rganamiz.

1. *Kompozitsiya qonunlari.*
2. *Kompozitsiya qoida va usullari.*

Kompozitsiya usul (yo‘llari). Kompozitsiyani asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish.



Inag'amon "Tinchlik bo'lsin uyinda."

Kompozitsiya xaqiqat qonuni - asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo‘layotgan voqeaning o‘ziga xosligi. A. Savrasovning «qora qarg‘alar uchib keldilar», I. Levitaning «Oltin kuz», A. Kuindjining «qayinzorda», A. Rylovning «Havo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga rus tabiatini o‘ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi - bu sodir bo‘layotgan voqea mavzuini, harakat holatini vaqtini tasvirlaydi.

Ayniqsa ko‘p figurali kompozitsiya mavzudagi personajlarni har xil holatda aks ettirilgan I. Repinning «Kutilmagan edi» asarida tamoshabin faqat personajlarni tasvirlangan holatini emas, balki ular hibisdan qaytgan erini tasodif

ko‘rishdan oldin nima ish bilan band, qanday holatda - ekanligini tasavvur qiladilar. Keksa onasi royal’ chalishni to‘xtatib, kresloni chetga surib, o‘g‘lini qarshi olishga o‘girilgan. Keyinchalik kutilmagan uchrashuv. Natijada qalbni to‘lqinlantirib ko‘zlari quvonch yoshlariga to‘la holatta aylanadi. Bu erda bo‘layotgan kulminatsion daqiqa hayotiy voqeani mavzu bilan bog‘lovchi harakatdagi vositadir. YU. Pimenev «Yangi Moskva», «Ertangi ko‘chalarda tuy» (rasmlar) asarida ko‘z oldimizda o‘zgaraётgan harakatdagi zamonaviy shahar hayotini kursatgan.



**Pimenov Yuriy Ivanovich “Yangi Moskva”
(1903-1977)**



Isaak Levitan “Oltin kuz” (1896)


Estetik kashfiyotlarni Mikelanjelo, Titsian, Rembrantning o‘lmas asarlarida, A. Deyneka, A. Plastov, K. YUon asarlarida kompozitsiya tuzilishining badiiy vositalaridan mavzuda yangilik tushunchasini ko‘ramiz. «Novizna» yangilik oqimini biz A. Kuindjining - «qayinzorlar», V.Polenovning «Moskvadagi hovli» manzarasida ko‘ramiz.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Vinchi «Rangtasvir qonunlari» ilmiy asarida o‘lcham qarama - qarshiligi haqida, katta - kichik, past - baland, yupqa - qalin, harakter, faktura, materiallar kontrasti to‘g‘risida yozadi. Mikelanjelo tekislikdagi hajm

kontrastlarnga ko‘p ahamiyat beradi. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yorug‘ kontrastik orqali sezadi va o‘z ongiga singdiradi.

Rangasvirda kontrast qarama - qarshi issiq va sovuq ranglar mavjud, qarama - qarshi ranglar bir - biriga yonma - yon tursa, ranglar kuchi ko‘payadi: qizil - yashil, ko‘k - zarg‘aldoq, oq - qora va hakozi. San‘at asarlarini taxlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o‘z mohiyatini asta - sekin yo‘qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo‘la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy - jamiyat san‘at oldida yangi zamonaviy vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi.

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va san‘atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elementni oraliqda galma-gal qaytarilishidir. Asar g‘oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o‘ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.





N.Husaov. “Chavg'on o'yini”

Uzoq kenglikni ochiq manzarada gorizontal xolatda tasvirlansa, kenglik bepayon, katta bo'lib tuyuladi. V. Meshkovning «O'ral xaqida o'ylar» manzarasi juda gorizontal uzun formatda joylashtirib tasvirlangan. Ko'p planli manzarani orqasida o'rmonzor tasvirlangan. Oldingi va orqa plandagi kontrast yorqin ranglar, engil ufq chizig'i masofani, bepayon kenglikni aks ettiradi. Kompozitsiyani gorizontal usulda ifodalashda tinch, osoyishtalik holatini sezamiz. Kompozitsiyani paralel, vertikal yo'nalishda bo'lishi tantanali ulug'vor, ko'tarinki rux holatini anglatadi. Bunga L. Abdullaevaning «qo'riq er ochuvchilar» kartinasi misol bo'lishi mumkin. Diogonal yo'nalishi esa harakat holatini kuchayishi yoki susayishini ko'rsatadi. V. Surikovning «Boyarinya Morozova» kartinasida chananing harakatdagi yo'nalishi, chopib borayotgan bola, hayajon bilan kuzatib turgan turli libosdagi haloyiq - omma pastki o'ng burchakdan, yuqori - chapburchakka diogonal yo'nalishida tasvirlangan. Asarda harakat yo'nalishini o'ngdan chapga susaygan holati masofani chuqurligini ifodalashga imkoniyat beradi.

Ritm hayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir u bir elementni oraliqda galma –gal qaytarilishidir. Asar g'oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi. Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug'

rassomlari kompozisiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozisiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozisiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozisiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinli bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi. Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.



Rafael



Tintoretto

O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bimalol kompozisiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.



Chingiz Axmarov “Vtorjeniya”(1968)





Baxodir Jalolov “Baxt”

I-BOB. II. RANGLARNING INSON HAYOTIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI.

Qadim-qadimdan insoniyat ranglarga aloxida ramziy ahamiyat berib kelgan. Har bir jon o'z mohiyatiga monand rangni beixtiyor xis etadi, unga ixlos qo'yadi, zarur kelganda sonsiz ranglar ichidan ayni shuni ajratib oladi. Ranglarga munosabat odamning o'z-o'zini tuzukroq anglab olishga yordam beradi. Buning uchun avvalo eng yaxshi va eng yomon ko'rgan rangni aniqlab olmoq kerak. Ranglar tili, puxta egallangan taqdirda, odamlarning, xatto jamiyatning ma'naviy holati to'Irisida ta'savvur berishi mumkin. Kucha- kuylar manzarasida, xonadonlar jixozida, odamlar usti-boshida qay rang xukmron? SHu rang jamiyatning hol-axvolini belgilaydi. Qadimdan YAponiyada ekubana san'ati rivojlanib kelgan. Yaponlar har bir tirik jonzotga, xatto Ioya va toshlarga ham xurmat bilan qarab, gullarni esa insoniga qiyoslab kelganlar. VI asrda ibodatxona roxiylari gulning sulishini gulga nisbatan zuravonlik deb bilganlar. Keltirilgan gullarni ular guldonlarga solishar va parvarishlashga etarlicha vaqt topardilar.

Ekubanga munosabat o'ta jiddiy bo'lsada, biroq qurbonlik gullarining soniga shunchalik e'tibor kam edi. Ular ko'proq shoxlar va o't-ulanlardan ekubana yasashga intilishardi. SHuning uchun ham yapon bollarida asosan daraxtlar, toshlar, suv va gullar turgan bir necha butalarni ko'rish mumkin. Ana'anaviy ekubanalar yasashda ba'zi o'simliklar aloxida ahamiyat kasb etadi. YAngi yilda qaraIay, bambuk va yovvoyi olxo'ridan ajoyibbnkompozitsiyalar tuziladi. QaraIay uzoq umr, bambukning nozik poyasi sabr toqat va chidamlilik - timsoli, olxo'ri - doimo solliq va farovon hayotga ishoradir. YAponiyada gullar rangini o'rganadigan aloxida fan mavjud. Qizil to'lqinlantiruvchi, quvonch rangi hisoblanadi. Lekin bemorlarga qizil gullar taqdim etishni yaponlar maslaxat bermaydi, chunki bu rang qon bosimini oshirib yuborishi mumkin.



“Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g'ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir.” Islom Karimov.

Har bir ranglarning ramziy ifodalanishi, ramziy ma'nosi bor. Qadimda ajdodlarimiz rang orqali ramziy ma'noda gapirganlar. Insonlarning yuzi rangiga qarab kasalliklarini aniqlaganlar va da'volaganlar. Ranglar orqali falsafiy fikr berganlar va insonlarga ruhiy ta'sir etganlar. Masalan, sallaning turli rangi bo'lib. Ular orqali turli ramziy ma'nolar o'z ifodasini topgan. Rangiga qarab mansabi, masxabi va boshqalarni bilish mumkin. bo'lgan. Qadimda har bir bayroq rangining ramziy ifodasi bo'lgan. Hozirgi, O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrolidagi har bir rangning ham o'z ramziy ma'nosi bor va siz ularni yaxshi bilasiz.

Bayroqdagi **moviy rang** tiriklik mangu osmon, obi hayot tinchlik yomon ko'zdan, xalollik, shon-shuxrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlat bayrolining rangi ham moviy rangda edi. **Oq rang** muqaddas tinchlik bo'lib, u kun charolonligi va koinot yoritkichlari bilan uy'lunlashib ketgan. Oq rang poklik, beluborlik, soflik, nazokatlilik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilish timsolidir. **Yashil rang**-tabiatning yangilashi ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik tabiat timsoli hisoblanadi. Hozirda oddiy yo'l chiroq qizil, sariq va yashil rang orqali insonlariga yo'l ko'rsatadi. Naqqoshlikda ham rang orqali voqelikni ramziy ma'noda tushuntiriladi. SHuning ychyn

ranglarning ramziy mazmunini o'rganish katta ahamiyatga ega. Ranglarning ramziy tilini o'qishni o'rganish, ranglarning ramziy alifbosini bilish kerak. Ularni yaxshilab o'rganib olgandan so'ng turli naqsh ranglari orqali ularni o'qish mumkin. Chunonchi:



Yashil rang- Ona tabiat ramzi.

Maviy rang- Osmon, tinchlik, yomon ko'zdan asrash.

Qizil rang- G'alaba, xursandchilik, shodlik.

Sariq rang- Muqaddaslik, yorullik, kenglik. Ayriliq.

Q o ra rang- Motam, cheksizlik, mavxumlik, qo'rquv, tushkunlik, noaniqlik ramzi.

Zangori rang- Oliy e'tiqod.

Oq rang- Tozalik, yorullik, baxt va omad ramzi.

SHu ranglarning ramziy ma'nosiga asoslanib mustaqil kompozitsiyalar tuzishda foydalanishimiz mumkin

Ranglarning ramziy ma'nolari.

1. **Yashil rang.** Ona tabiat, islom ramzi.
2. **Moviy rang.** Osmon, koinot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash ramzi.
3. **Qizil rang.** G'alaba, olov, ilqlik, xursandlik, shodlik, qon.
4. **Sariq rang.** Muqaddaslik, yorug'lik, quyosh, kenglik.
5. **Qora rang.** Motam, cheksizlik, mavxumlik, qo'rquv, tushkunlik, noaniqlik.
6. **Zangori rang.** Oliy e'tiqod.
7. **Oq rang.** Poklik, ozodlik, yorug'lik, baxt,omad.

Ranglar Psixologiyasi.

Ayrim ruʼshunoslarning ta'kidlashicha, u yoki bu odamning qaysi rangni yoqtirishiga qarab, ularning fe'l-atvorining asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin emas. SHu taxminga asoslanib, xattoki, qiziqarli test ishlab chiqilgan. Demak, siz qaysi rangni yoqtirasiz?

Agar,

1.  **QIZIL RANG**ni afzal ko'rsangiz - siz dilbarsiz, lekin tashqi ta'sirga beriluvchan, ammo o'zingizga juda ishonasiz. O'zingizning haqgo'yligingizga shubxa qilsangiz-da, zo'r berib, o'z fikringizni ma'qullaysiz. Ba'zan munozara va baholarda mallub bo'lib, qolsangiz kayfiyatingiz tushib ketadi. Biroq, o'z yaqinlaringiz va do'stlaringizga o'ta mexribon hamda oqibatlilikingiz bilan ajralib turasiz

2.  **ZARG'ALDOQ RANG**ni yoqtirsangiz, siz o'zingizni urab turgan olamga juda qiziqib, xavas bilan boqasiz va hayotni sevasiz. Sizda kuchli iroda, aql-zakovat, iste'dod va ijodkorlik kabi xususiyatlar

mujassamlashgan. Juda mag'rursiz, lekin bu xususiyat sizga aslo xalaqit bermaydi. O'z rejalaringsizni amalga oshirishda astoydil harakat qilasiz, "harakatda barakat" deganlaridek, har bir ishni to'la-tukis darajada, ziyodasi bilan bajarishga intilasiz. Ammo pishib etilgan ishlarni doimo amalga oshirish qo'lingizdan kelavermaydi. Balki sariqni sevarsiz? Unda juda ham quvnoq, dilkash, faol va harakatchansiz. O'tkir zexn va zo'r qobiliyat umr bo'yi sizga yo'ldosh bo'ladi. Siz sevgan bu rangni faylasuflar, olimlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar ham afzal ko'radilar. Agar,

2.  **YASHIL RANG**ni qadrlasangiz - sizning fe'l-atvoringizda sustlikka moyillik bor. Siz odobli, to'iri, vazmin va quvnoq odamsiz. Lekin siz ba'zan juda ham yolliz bo'lishni xohlaysiz. Irim- sirimlarga ishonasiz. Ammo sizdagi faollik ham, sustlik ham me'yoridadir.

Havo rangga moyillik bildiruvchilardan bo'lsangiz u holda juda jonkuyar, ziyrak, kuzatuvchan, farosatli bo'lish barobarida unchalik mustaqil ham emassiz. Siz kabilar tabiatan ko'proq orzu qilishni yoqtiradilar. Aslida esa o'zingizning son-sanoqsiz shirin orzu-xayollaringiz sabab hamma narsani xohlaysiz, biroq, ularni haqiqatda ro'yobga chiqarishni uddalay olmaysiz. Hayotdagi ba'zi bir qiyinchaliklarga uchrashingiz, sizning jur'atsizligingizdandir

3.  **SIYOH RANG** Sizga ko'proq ma'qul kelar, balki? Unda siz serlayrat, sho'x, san'atkor odamlarga kungil quygan kishisiz, lekin san'atning biror turi bilan mashlul bo'lishni o'zingizga ep bilmaysiz. Ajoyibligingiz shundaki, o'z do'stlaringiz va dugonalaringsizga tanqidiy ko'z bilan qaragan holda o'zingizga ham shunday tanqidiy yondasha olmaysiz. Fikrlashda, muloxaza yuritishda siz mustaqilsiz, biroq bundan ruhan ezilasiz.

4.  **PUSHTI RANG**ni xo'sh ko'ruvchilar esa ko'nglining juda nozikligi bilan ajralib turadilar. Ular xayolparast, ba'zi-ba'zida shirin


xayollarga ham beriladilar. Agar siz shu toifadan bo'lsangiz, go'zallik va nafislikdan juda ta'sirlanasiz, ammo ishbilarmonlik qo'lingizdan kelmaydi, ko'proq orzu qilishni yoqtirasiz, xolos. Xaqiqiy hayotni esa juda jun tasavvur etasiz.


5.  **JIGAR RANG**ga moyil bo'lsangiz yoqimtoy, ishonuvchan, xotirjamsiz, yaxshilik va ezgulik xis-to'ylulari bilan ajralib turasiz. Biroq ba'zan jizzaki va xattoki, tajovuzkorsiz. Ko'pincha, siz kabilarda qat'iyat va faollik etishmaydi.

Balki

6.  **KUL RANG**ni. Balki kul rangni xo'sh ko'rarsiz. Unda siz extiyotkorsiz, tartib va tinchlikni yoqtirasiz. Har narsaga sinchkovlik bilan yondashasiz. Birovga xavas qilmaysiz, ularga shafqatli bo'lishga ham xohishingiz yo'q. Ba'zan boshqalarga nisbatan raxmdillik xissi ham paydo bo'ladi, ammo bu narsa bir zumda xayolingizdan ko'tariladi. Odamlar bilan ishingiz yo'q. Sizning fikringizcha, har bir inson o'zining hayoti, taqdiri va baxti uchun ko'rashishi kerak.

Agar,

7.  **QORA RANG**ni yoqtirsangiz, ko'pincha uni ajoyibroq ko'rinish uchun tanlangiz deb o'ylash mumkin. Yo'q? Nima bo'lganda xam siz nozik xissiyot, yashirin hayot tarziga moyil ekanligingiz bilan ajralib turasiz. Baladdarvoz faylasufona fikr yuritishni yaxshi ko'rasiz. Odamlar bilan, ayniqsa, raxbarlar bilan "apoq-chapoq" bo'lib, tezda til topisha olasiz. Qisqasi, siz to'qma diplomatsiz.

7.  **YOQ RANG**ni sezuvchilar to'Irisida esa sho'nday deyishadi: uni ochiq ko'ngil, haqiqatgo'y, murosasiz hamda boshqalarga va o'ziga o'ta talabchan odamlar ma'qul ko'radilar.

8.  **HAVO RANG**ga moyillik bildiruvchilardan bo'lsangiz u hold juda jonkuyar, ziyrak, kuzatuvchan, farosatli bo'lish barobarida unchalik mustaqil ham emassiz. Siz kabilar tabiatan ko'proq orzu qilishni yoqtiradilar. Aslida esa o'zingizning son-sanoqsiz shirin orzu-xayollaringiz sabab hamma narsani xohlaysiz, biroq, ularni haqiqatda ro'yobga chiqarishni uddalay olmaysiz. Hayotdagi ba'zi bir qiyinchaliklarga uchrashingiz, sizning jur'atsizligingizdandir.

9.  **SARIQ RANG** Balki sariqni sevarsiz? Unda juda ham quvnoq, dilkash, faol va harakatchansiz. O'tkir zexn va zo'r qobiliyat umr bo'yi sizga yo'ldosh bo'ladi. Siz sevgan bu rangni faylasuflar, olimlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar ham afzal ko'radilar.

Dunyoni to'rt tomonining o'ziga xos ranglari


Dunyoni to'rt tomonini o'ziga xos ranglar bilan belgilangan. Masalan: SHimolni oltin rang bilan, Janubni kumush rang, Iarbni (lyapis-lazur) havo rang, SHarqni esa (krasnyy rubin) yorqin qizil rang.

Dunyo sayyoralarining va haftaning har bir kunining ranglari

1. **Yashil** - Oy – Dushanba, 2. **Qizil** - Mars – Seshanba, 3. **Ko'k** - Merkuriy – CHorshanba, 4. **ZarIaldoq** - Yupiter – Payshanba, 5. **Oq** - Venera – Juma. 6. **Qora** - Saturn – Shanba, 7. **Sariq** - Quyosh – Yakshanba.

Ranglar orqali insonlarni harakterini aniqlash

Siz qaysi rangni sezsangiz shu raqamli rangni o'qing.

- | | | | |
|-------------------------|---|----------------------|--|
| 1. Yashil rang. |  | 2. Qizil rang |  |
| 3. Sariq rang. |  | 4. Havo rang. |  |
| 5. Binafsha rang | | 6. Oq rang. |  |
| 7. Qora rang. |  | | |

1.YASHIL RANG. Bu rangni sevuvchilar juda xissiyotli, nozik didli, tabiatni yaxshi kuruvchi, erkin va ozod sevuvchi ishq bobida vafodor va ishonchga loyiq kishilardir.

2.QIZIL RANG. Bu rangni sevuvchi kishilar qiziqon, harakatchan, tezda bir qarorga keluvchi, jaxli tez, har bir ishga aralashib, mojaro chiqarishni yaxshi kuruvchi kishilardir. Qizil rang taraqqiyot va zafarlar ramzidir. U ijod, faoliyat jarayonini mujassam etadi, mehnatga rag'batlantiradi, askarlar va inqilobchilar, umuman, er kishilar rangi hisoblanadi. Hamma ranglar ichida qizilni a'lo ko'radigan kishilar odatda to'laqonli hayot kechiradilar, lekin voqealarga mubolag'ali nazar bilan qaraydilar. Ta'savvur doirasini kengaytirish, yangi yutuqlarni qo'lga kiritish uchun ular faol harakat qiladilar. Tajovuzning har qanday xilini rad etadigan kishilar qizil rangni ham yomon ko'radilar.

3.SARIQ RANG. Bu rangni yoqtiradigan odamlar tushunuvchan, ravshan afsonaga aylanish darajasiga sevishga urinuvchi bo'ladilar. Sariq va nofarmon gullardan motam marosimlariga gulchambarlar tayyorlanadi. Shuning uchun xorijiy mehmonlarga zinxor sariq gul taqdim etilmaydi.

4.KO'K RANG. Bu rangni yoqtiruvchilar ichki olamdan ko'ra tashqi olamni, ichki go'zallikdan ko'ra tashqi go'zallikni sevuvchi bo'ladilar. Ular aqlli, prinsipli, ishqda vafodor, bir ishni qilishga axd qilsalar qilganlaridan keyin afsus chekmaydigan kishilardir. Bu rang – barqarorlik, sabot-matonat, qadr-qimmat ramzidir. Bu rangni yuqori quygan kishililar aksaran to'g'ri so'z, xatto rioyasiz, sal takabbur bo'ladilar. Ularda xukmronlikka, boshqalarga ta'sir irodasi, ro'diy matonati bu xil kishilarga har qanday qiyinchilikni engishga imkon beradi. Bu rangni qat'iyon rad etadigan kishi esa o'zini noxaq ravishda kamsitilgan, xizmatlariga yarasha tahdirlanmagan xis etib, ranjib, nolib yuradi. Bu holatdan quto'lib ketishga esa jur'ati etmaydi

6.OQ RANG. Bu rangni sevuvchilar pokiza, ma'sul kishilardir. Boshqalarga nisbatan muloyim, sovuqdon xissiyoti esa kamroq bo'ladi. butun spektr qatorini o'z ichiga olgan, murakkab, muqaddas oq rang. Fazlu kamol, xalolu pokizalik, bokiralik ramzi. Bu rangni sevgan kishilarni xavas qilsa arziydi. Oq rang - ilohiy ramz, yashil rang - jasurlik va sog'lomlikni bildirsa, safsar rang g'am-g'ussani anglatadi.

7.QORA RANG. Bu rang badbin va izzatalab kishilarning sevgan rangidir. Bunday kishilar kam kuladi, tund bo'lib yuradi, ishq bobida o'zbilarmon, bir ko'z qarashda sevib qolaveradigan bo'ladi. Qora rang uzlat, tanqid, fidokorlik ramzi. Shu rangga moyil kishilar har narsaga tanqid o'lchov bilan yondoshadilar, har narsa to'g'risida keskin, xatto qaltis muloxaza yuritadilar. Shu bois hayot bilan bellashuvda ko'p mag'lubiyatga uchraydilar. Ammo ichki erkni saqlab qolaman degan kishi ba'zan ilojisiz narsalardan kecha bilishi ham kerakdir.

8.SAFSAR RANG shaydolari qaram fikrli, lekin o'zlari ham boshqalarni o'z izmiga solishni istagan kishilardilar. Tan olish kerak ular o'z atrofida axil, totuv muxit yarata oladilar, biroq qaror qabul qilishda biroz ikkilanib qoladilar. Safsar rang befarqlik - xirsiy extiroslarning tumtoqdagi, o'shalmagan orzular belgisidir.

9.KUL RANG sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan bezarar rangdir. U tinchlantirmaydi, lekin g'ashga ham tegmaydi. Kul rang birinchi o'rinda turgan taqdirda – kishi o'zini tashqi ta'sirlardan extiyot qiladi, ichki muvozanati va ichki osoyishtaligi bo'zilishini istamaydi. Xis-to'yg'ularini pinxon tutadi, sir bermaydigan odamlar jumlasiga kiradi. Bu rangni oxirgi o'rinda ko'radigan kishilar - harakatchan, qiziquvchan, biroq xiyla xiyonatkorlar. Ular uchun bu rang zerikarli, tuyiq tuyuladi. Ular yorqin taassurotlarni, qaynoq voqealar ichida yurishni yoqtiradilar, hayotni chetga chiqarib qo'yishidan cho'chiydilar.

Ranglar so'zlaganda

Qadimdan Yaponiyada ekubana san'ati rivojlanib kelgan. Yaponlar har bir tirik jonzotga, xatto qoya va toshlarga ham xurmat bilan qarab, gullarni esa insoniga qiyoslab kelganlar. VI asrda ibodatxona roxiblari gulning sulishini gulga nisbatan zuravonlik deb bilganlar. Keltirilgan gullarni ular guldonlarga solishar va parvarishlashga etarlicha vaqt topardilar. Ekubanga munosabat o'ta jiddiy bo'lsada, biroq qurbonlik gullarining soniga shunchalik e'tibor kam edi. Ular ko'proq shoxlar va o't- ulanlardan ekubana yasashga intilishardi.

Shuning uchun ham yapon bog'larida asosan daraxtlar, toshlar, suv va gullar turgan bir necha butalarni ko'rish mumkin. Ana'anaviy ekubanalar yasashda ba'zi o'simliklar aloxida ahamiyat kasb etadi. Yangi yilda qarag'ay, bambuk va yovvoyi olxo'ridan ajoyib kompozitsiyalar tuziladi. Qarag'ay uzoq umr, bambukning nozik poyasi sabr toqat va chidamlilik - timsoli, olxo'ri - doimo sog'liq va farovon hayotga ishoradir. Yaponiyada



gullar rangini o'rganadigan aloxida fan mavjud. Qizil to'liqlantiruvchi, quvonch rangi hisoblanadi. Lekin bemorlarga qizil gullar taqdim etishni yaponlar maslaxat bermaydi, chunki bu rang qon bosimini oshirib yuborishi mumkin. Oq rang - ilohiy ramz, yashil rang - jasurlik va sog'lomlikni bildirsa, safsar rang g'am-g'ussani anglatadi. Sariq va nofarmon gullardan motam marosimlariga gulchambarlar

tayyorlanadi. Shuning uchun xorijiy mehmonlarga zinxor sariq gul taqdim etilmaydi.

Ranglar davolaydi

Yaqin vaqtlardan beri yapon ayollari qizil rangli kiyimlarni ma'qul ko'rib qoldilar. Chunki chevarlar qizil rangli kiyim kiyadigan juvonlarning uzoq vaqtlarga qadar yosharib, jozibador bo'lib yurishlarini aytmoqdalar. Bu gaplarda oz bo'lsada haqiqat bor.

Qadim zamonlardan beri turli xildagi ranglarning shifobaxsh ta'siri ma'lum. Masalan, sharqda qizil rang ichaklarning quyi qismini va oyoqlarni nazorat qilib turadigan energetik chakralardan biri, deb hisoblangan. **Qizil rang** muskul faoliyatini yaxshilaydi. Moddalar almashinuvini me'yoriga keltirib turadi. Qon yaratilishini yaxshilaydi. Shuningdek, teri kasalliklarida, chunonchi chechak qizamiq, saramas, volchanka, skarlatinaga davo bo'ladi. Xotirani mustaxkamlaydi. Odamga tetiklik va quvvat baxsh etadi, virusli kasalliklarda yordam beradi. Ayni vaqtda qizil rang boshni og'ritishi, asabiylashtirishi mumkin. Shuning uchun semiz odamlar qizil rangdan extiyot bo'lganlari ma'qul.

Zarg'aldoq rang. Me'da-ichak ishini me'yoriga soladi. Ishtaxani ochadi. Ilgarilari oshxona va mehmonxonalarga zarg'aldoq rangli abajurlar osib qo'yilgani bejiz emas. Bundan tashqari, zarg'aldoq rang o'pka kasalliklarda (o'pka, traxeya, bronxlar, xalqum, xiqildoq) kasalliklarda organizmga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi. Xususan bronxial astmasi bor bemorlar uchun juda foydali. Zarg'aldoq rang endokrin tizimni rag'batlantiradi. Taloq va qizilo'ngach kasalliklarida samarali.

Sariq rang. Boshqa shifobaxsh vositalar bilan biriga atonik qabziyat, uyqusizlik teri kasalliklardan foriq bo'lishda yordam beradi. Sariq rang ishtaxani ochadi. Butun organizmga tozalovchi ta'sir ko'rsatadi. Ko'z va jigar ishini rag'batlantiradi. Nerv sistemasi tonusini oshiradi. Aqliy qobiliyatni yaxshilaydi.

Yashil rang. Qadim zamonlardan abadiylik timsoli hisoblanadi. U aritmiyani yo'qotadi. Qon bosimini me'yoriga keltiradi. Yurak o'ynashini

yo'qotadi. Shamollash kasalliklarida davo, asabiylashishga va jaxldorlikka yo'l qo'ymaydi, yashil rang bronxlarning kengayishiga ta'sir qiladi. Quloqning eshitishini yaxshilaydi. Yurak qisqarishlarini kuchaytiradi, mehnat qobiliyatini oshiradi, bosh og'rig'ini kamaytiradi.

Ko'k va havo rang (zangori). Juda kuchli antiseptik havo rang pigment dog'larni, jigar kasalligini, sariqni, kuyganlarni davolaydi, yallillanish jarayonlarini bosadi. Havo rang ko'z xiqildoq, umurtqa polonasi kasalliklarida qo'llaniladi. U shuningdek yurak faoliyatini meyorlashtiradi.

Moviy rangning ozish niyatidagi odamlarga foydali bo'lishi sezilgan.

Havo rang idish, havorang dasturxon, havorang yorullik devorlarning havo rangga bo'yalgani ishtaxani juda pasaytiradi va dasturxonga tortiladigan ovqatni ko'rimsiz qiladi.

Ko'k va ko'm-ko'k rang. Qalqonsimon bez kasalliklarida, bo'qoqda, o'pka kasalliklarida yordam beradi. Ko'k rang katarakta, glaukoma, astma va o'pka yallillanishida shifobaxsh. Hind olimlari ko'k rang ruhiy nosollom odamlargauzoq vaqt ta'sir qilish turganda ular ozmi-ko'pmi darddan foriq bo'lishi mumkin, deb hisoblaydilar. Faqat nerv sistemasi bo'sh odamlar ko'k va moviy rangdan uzoqroq bo'lganlari ma'qul. Chunki bu rang ularga ruhni ezadigan ta'sir ko'rsatadi.


Binafsha rang. Binafsha rangdan barcha ruhiy kasalliklar va asab buzilishlari, nevrologiya, revmatizm, miya chayqalishi, jigar va ajratuv sistemalari kasalliklarida foydalanish mumkin. Uning tomirlar sistemasiga yaxshi ta'sir qilishi ham qayd qilingan.

Shunisi qiziqki, chet el olimlari, ranglarning qon guruxlariga aloqador bo'lishini aniqladilar. Masalan, qoni birinchi gurux odamlar qizil, zarg'aldoq, (pur-pur) to'q qizil ranglari ma'qul ko'radilar. Qoni ikkinchi gurux odamlarga hayotiy jarayonlarni me'yorlashtirish uchun moviy va yashil ranglar tavsiya etiladi. Chunki bu ranglar tanaga va aqliy qobiliyatga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Qoni uchinchi gurux odamlarga hamma ranglar mos kelaveradi. Ularga

qizil va zarg'aldoq ranglarni qo'llash hayot faoliyati jarayonlarini rag'batlantiradi va aqliy faollikni oshiradi. Moviy va yashil ranglar asablarni tinchlantiradi, binafsha rang o'y-xayollar va xotiralarning yaralishiga yordam beradi. Qoni to'rtinchi gurux odamlar energetik ta'riflariga ko'ra, ikkinchi guruxga o'xshaydilar. Moviy va yashil ranglar ularga ancha yaxshi. Kiyim tanlashda va o'yingizni jixozlashda yuqorida aytib o'tilgan ranglardan o'zingizga ta'luqligini tanlansangiz doimo sixat-salomat va kayfiyatingiz yaxshi bo'lib yuradi

LIBOSLARNING RANGGI.

Liboslarning rangi turlicha bo'ladi. Har bir rang o'ziga xos ma'noni ifodalaydi. Agar oq libos nimani anglatadi, deb so'rasalar, shunday degin: oq kiyim kunning rangidir. Shuning uchun bunday libos yuragidagina va adovatni yo'qotadi, kishilarga nur ulashadi. Agar ko'k libos nimani bildiradi, desalar, shunday degin: - ko'k rang suv rangidir. Shu bois bu rangda kiyingan kishilar sahiy va hayotni sevuvchi bo'lishlari lozim. Kim agar bu rangni ma'qul ko'rsa, xuddi suvdek toza va musaffo, har bir qalbga yaqin bo'lishi lozim. Agar qora libos nimani anglatadi, desalar, ayt: qora rang tun va ko'z qorachig'ining rangidir, shu bois bunday libosni kiyganlarning qalblari sir – asrorga to'la bo'ladi. Agar yashil kiyim to'g'risida so'rasalar, shunday ayt: yashil rang samimiy va etuk kishilar rangidir. Bunday kiyim kiygan kishi yordamga muxtoj kishilarga iloji boricha, ko'maklashishi kerak.



Ranglarning ta'sirchanligi: quyidagi jadvalda turli ranglarni optik ta'siri va ularning ta'sirchanlik xarakteri berilgan.

Rangi	Optik ta'siri	Qabul qilinishi
Sariq	Yorug', yaqin, bir turli tarqoq	Issiq, engil, quruq yumshoq
Zarg'aldoq	Yorug', yaqin, tarqoq, oldinga chiqqan	Issiq, quruq, engil yumshoq
Qizil	Yorug', yaqin, bir turli	Issiq, og'ir
Purpur (qirmizi)	Bir turli, uzoq	Og'ir, sovuq, qattiq
Ko'k	Qorqmtir uzoq bir turli	Sovuq, og'ir, qattiq nam ko'rinishi
Ko'kish-yashil	Qoramtir, uzoq	Sovuq, og'ir, qattiq nam ko'rinishli
Yashil	Uzoq, bir turli	Sovuq
Sarg'ish-yashil	Yorug'	Sovuq
Oq	Oq, uzoqlashgan bir turli	Engil, mayin
Qora	Qora qattiq	Og'ir, qisq
Kul rang	Noaniq	Og'ir
Qizg'ich-malla	Qoramtir	Issiq, qattiq, zich
Sarg'ich-malla	Yorug' olg'a intiluvchi	Engil, yumshoq


Quyidagi jadvalda ranglarning ta'sirchanligiga xarakteristika beriladi. Ammo bundan foydalangani anik yoki mutlako tavsiya deb tushinilmaslik kerak. Bu soxa fanda kam o'rganilgan, qolaversa rang ta'sirchanligi indivudal xususitga ega. Ammo ko'pchilik uchun quyidagi ranglar ta'sirchanligi umumiydir.

Ranglar birikmasi	Ta'sirchanlik xarakteri, qabul qilinishi, sezishili
Sariq – zarg'aldok – qizil	Aktivlashtiruvchi, issiq xayotbaxsh
Sariq – qirmizi (purpur) qizil	Tantanavor
Sariq- – sarg'ish – yashil	Xayotbaxsh, baxra ochuvchi
Sariq – ko'kish – yashil	Sovuq sokinlik baxsh etuvchi
Sariq – qora	Qora fonda sariq – diqqatni tortuvchi zidlik

	bilan ta'sir qiluvchi
Sariq – oq qizil – binafsha	Lanjlik, sustashlik, notinchlik
Qizil – ko'k	Dinamiklik, xiyotbaxsh
Qizil – sarg'ish – yashil	Aktivlashtiruvchi
Qizil qora	Ko'ngilni ezuvchi
Qizil – oq	Quruq, qattiq, notabiylik
Qizil kul rang	Issiq, yoqimli, agar kul rang ko'proq miqdorda bo'lsa – jidiy rangli
Ko'k – zarg'aldok	Jonli, kuzgatuvchi
Ko'k – binafsha	Noaniq kayfiyatli, sustkashlik chakiruvchi
Ko'k – yashil	Sovuq, xarakatsizlik
Ko'k – qora	Ko'ngilni notinchlantiruvchi xayotsizlik
Ko'k – oq	Toza, engil, baxra ochuvchi
Ko'k – kulrang	Sovuq, ruxiyatni susaytiruvchi
Yashil – binafsha	Befarqlik, noaniq kayfiyatli
Yashil – zarg'aldok	Quvonchli
Yashil – qora	Og'ir
Yashil oq	Sovuq, oxista, toza, engil xissiyot
Yashil – malla	Tabiiy, xayotiy, oxistalik

II.BOB. TA'LIM TIZIMIDA RANGSHUNOSLIK FANINING O'QITIISH JARAYONLARI.

Dunyo cheksiz sir-sanoatlardan iborat. Ularni o'rganish uchun cheksiz inson umri kerak bo'ladi. Ajdodlarimiz tabiat tomonidan yaratilgan barcha ne'matlarning sirli olamini, sabablarini o'rganishga harakat qilganlar va shunday xulosaga kelganlarki, dunyoda hech bir narsa sababsiz yaratilmagan, Chunonchi "rang" atamasi to'rtta xarfdan iborat bo'lsa-da, uning ma'nosiga va sirli olamini o'rganishiga insonlarning umri etmaydi. Rangni ilmiy o'rganish uchun "Rangshunoslik" fani yuzaga kelgan. Rang inson hayotida cheksiz ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda.



Hozirda xattoki bir qancha davlatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar ishlab kelmoqda. Ayniqsa, Yaponiyaning Tokio-shahridagi rang instituti dunyoga mashxur. Dunyoning taniqli olimlari tomonidan rang orqali ramziy ma'noda gapirish; ranglar vositasida insonlarni davolash; tarbiyalash; ranglar jilg'asi orqali falsafiy fikr berish; rang orqali insonning ichki dunyosini bilish; qishloq xo'jalik maxsulotlari unumdorligini oshirish; insonlarning ma'naviyatini shakllantirish va boshqa masalalar o'rganilmoqda. Respublikamizda yuqori malakali va ma'rifatli kadrlarni etishtirish va ilm soxiblari safini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda.

Tabiatdagi mavjud ranglarni ikki qismga: axromatik va xromatik ranglarga ajratish mumkin. Oq kul rang va qora ranglar hamda ularni har xil nisbatda aralashtirishdan hosil bo‘ladigan barcha ranglar tuslari axromatik ranglar deyiladi. Spekrda axromatik ranglar qatnashmaydi. Agar biz kartondan doira qirqib olsak va uni spektr ranglari tartibida qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havo rang, zangori ranglarga bo‘yab chiqib, o‘z o‘qi, ya’ni ventilyator o‘qiga o‘rnatib o‘z o‘qi atrofida tez aylantirsak umumiy ko‘rinishdagi kul rang tusni kuzatamiz. Yana xuddi shu usulda uchta asosiy ranglar – qizil, sariq va zangori ranglarni aylantirganimizda esa yanada yorug‘roq bo‘lgan och kul rang hosil bo‘ladi. Shu etti xil rangni palitrada aralashtirib ko‘rsak qoramtir tusdagi ko‘rimsiz aralashma hosil bo‘ladi.



Axromatik ranglarning xromatik ranglardan farqi shuki, ular tanlamay yutish va qaytarish xossalariga ega. Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya’ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Har bir xromatik rang uchta xossaga: rang tusiga, rang yorqinligiga (ya’ni kam yoki ko‘p yorqinligiga), rang kuyinganligiga (ya’ni rang quyuqligiga) ega bo‘ladi. Spekrni sinchiklab kuzatsak uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasida

o'xshashlik alomatini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar hosil bo'ladi.

Ranglar doirasida rang tuslari juda ko'p bo'lishi mumkin, lekin bizning ko'zlarimiz 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Sovuq ranglarga esa muz, suv, osmonning rangini eslatuvchi ko'kish rang, zangori, binafsha, havo rang, to'q yashil, ko'kish qizil ranglari kiradi. Axromatik rang – grekcha tussiz rang demakdir. Ular bir-birlaridan yorug'lik kuchlari bilan farq qiladi. Tabiatdagi mavjud ranglarni yana o'z navbatida iliq va sovuq ranglarga ajratish mumkin. Iliq ranglarga quyoshni, alangani, qizigan temirning taftini eslatuvchi sariq, zarg'aldoq, qizil, sarg'ish yashil kabi ranglar kiradi. Mashhur rang institutini ta'kidlash mumkin.

Qayerdagi yorug'lik nurlari bo'sa o'sha joyda rang ham mavjuddir, yorug'lik to'lqini bo'lmagan joyda hech bir rang yo'q. Har bir rang o'zining to'lqin uzunligiga ega. Ranglar- inson ko'zi bilan qabul qiladigan to'lqin uzunligiga mos keladi. Hasharotlar va hayvonlarning ko'zlari insonnikida farq qilgani uchun ularning ko'zi boshqacha to'lqin uzunlikni qabul qiladi, shuning uchun ular boshqacha ranglarni ham ko'ra olishi mumkin. Qisqacha qilib ta'rif bersak, rang bu – jismga tushgan yorug'likni o'sha jism rangi tufayli o'zining to'lqin uzunligini o'zgartirib sinib qaytishi, Ana shunday sinib qaytganda bizning ko'zimizga jism rangli bo'lib ko'rinadi. Demak, predmaetning rangi o'sha redmet yasalgan material va unga tushayotgan yorug'lik to'lqiniga bog'liq Isaak Nyuton quyosh nurini shisha prizmadan o'tkazib oq nur tarkibida juda ko'plab ranglar borligini aniqladi, bu ranglarning asosiylari 7 xil edi. Spektr (kamalak) 7 xil rangdan iborat bo'lib ko'ringani bilan, ammo maxsus priborlar uning tarkibida 100da ortiq rang borligini ko'rsatdi. Hayotingizda biror marta- “tabiatda necha xil rang bor” deb o'ylab ko'rdingizmi?, Albatta bu savolga aniq javob berib bo'lmaydi, chunki turli xil ranglar birini boshqasiga qo'shilishi yordamida hosil qilinadi, Shunday ekan, ularni istagancha hosil qilaverish mumkin. Lekin o'sha hosil qilinayotgan turli

ranglar aslida bir nechta asosiy hisoblangan ranglarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu asosiy ranglar – kamalak (spektr)dagi 7 xil rang hisoblanadi.

Agar etibor bergan bo'lsangiz kamalakdagi ranglarni bir biridan farqlash qiyin, chunki, bir rang bilan keyingisi o'rtasida aniq chegara yo'q, ya'ni biri boshqasi bilan qorishib ketgan, Ular: Qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, ko'k, pushti, binafsha, Ana shu 7 xil ranglarning ichida ko'zga yaqqol ko'rinadigan, yanada eng asosiysi hisoblangan 3 xil rang mavjud bo'lib, ular: Qizil, Yashil va Ko'k. Qolgan 4 ta rang shu 3 ta rangning qo'shilgan joyida hosil bo'lgan. Endi shu bilan bog'liq holdan, e'tiboringizni boshqa tomongan qaratmoqchimiz, Televizor, kompyuter va boshqa qurilmalarning ekraniga diqqat bilan qaraganmisiz. Agar siz har qanday ekranni diqqat bilan kuzatsangiz, ekran nuqta (pixel)lari aynan 3 xil rangdan iborat ekanligini sezasiz. U ham bo'lsa, yuqrida aytilgandek: Qizil, yashil, ko'k. Mana shu ranglarning ochroq tusga kirishi yoki qoramtirroq tusga kirishi natijasida ekranda har turli ranglar hosil bo'laveradi.



Inson umrining har lahzasida uchraydigan rang insonlarning ma'naviyatini shakllantirishda muxim o'rin tutadi. Chunki rang ruhiyatga har daqiqada ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin. Yorug'lik bor joyda rang bo'ladi. Chunonchi kechqurun uyingizda chiroq uchib qoldi, deylik hamma joy qop-qora zulmat bo'lib ko'rinadi. Siz siqilasiz, tushkunlikka tushasiz, insonda mavhumlik paydo bo'ladi. Ko'z qorachig'i kattalashadi, yurak urishi o'zgaradi, bu holat kishilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir etadi. Buning aksini olaylik har bahorda lola sayliga chiqqaningizda, toza havodan tashqari, qir-adirlarda turli rangdagi gullarni, maysalarni, musaffo osmonni, tog' chuqqisidagi oppoq qorlarni ko'rib, ruhingiz ko'tariladi, hayotga va tabiatga bo'lgan muhabbatingiz yanada oshadi.


Shuning uchun ham, qadimiy qo'lyozmalarda yozilganidek tabiblarimiz erta bahorda qir-adirlarga sayohat qilishni tavsiya etganlar. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Komoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonda mashhur ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma'nolari, inson sog'lig'iga ta'siri va boshqalar haqida juda ko'p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Chunonchi: Abu Rayhon Beruniy o'zining "Kitob al Javohir-ma'rifat al Javohir" (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida yozib qoldirgan. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki, har bir rangning ramziy ma'nosini bilganlar.

Ulardan bizgacha etib kelgan ba'zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: *avlon, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug'doy rang, buz gulgun, jigar rang, zangori, za'faron, zumrad, qahrabo, kul rang, ko'k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nafarmon, oq, pistamagiz, pistaqi pushti, sariq, savsar samo rang, sur, feruza, uchoq, kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag'iz, qoracha qo'ng'ir, havo rang anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo'ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg'aldoq,*

kaptar bo'yin, ko'kimtir, lilovi, limurang, maykaylik mikori, novvot rang, nilobi, nimtatir, nim pushti, norgul, olov rang, olmatakori, oq upa suvi, sabzi rang, samak kesaksiyo, sir, sovot, surma rang, tilla rang, tupori to'liq, tutiyoyi va boshqalar. Afsuski, yillar, asrlar o'tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma'nosi hamda ularning tili yo'qolib ketish arafasiga kelib qoldi.

Ulug' allomalarimiz har bir rang nomini nima uchun qo'yilganligini o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Ajdodlarimiz rangdan me'morchilik obidalarini bezash; milliy kiyimlarda; betoblarning kasalini aniqlash, davolashda unumli foydalanganlar. Chunonchi, Shayxul – islom Ibn Taymiyaning rivoyat qilishicha, payg'ambarimiz besh xil rangli salla uraganlar, ya'ni oq, qora, yashil, qizil va havo rang. Qora rangli sallani ta'ziya marosimlarida uraganlar. Moviy (osmon rang) sallani dushman ustidan g'alaba qilganda, oq rangli sallani masjidga borishda, qizil rangli sallani jangda, sariq sallani kasalni ko'rish uchun borishda uraganlar. Qadimgi Misrda bo'yoq olish usulini yaxshi bilishardi. Buning uchun o'simliklarning ildizi, shirasi, mevasi, gulidan foydalanilgan. Bir xil xashoratning quritilgan tanasidan qirmizi rangli bo'yoq olinardi. O'rta Osiyoda ruyan, o'sma, isiriq, anorlardan qizil bo'yoq, yong'oq, karmaklardan qora va jigarrang bo'yoq zira, isfaraq sutlama, rezeda, maxsar, tuxumak za'far, tut, olmalardan sariq bo'yoq gulxayridan ko'k va binafsha rang bo'yoq olingan. Qadimda mashxur bo'lgan qirmizi rang faqat bir turdagi dengiz mollyuskalarining maxsus bezidangina olinardi.

Qora, qaramtir ko'k, binafsha ranglariga bo'yalgan tekisliklar ko'rinishidan kichiklashadi va pastga tortilgandek ko'rinadi. Yashil rang ularning ichida eng turg'un ko'rinadi. Bundan kelib chiqadiki ijtimoiy xayotimizning ko'pgina soxalarida ranglar xususiyatlarini ko'zda tutgan xolda ulardan foydalanish mumkin ekan.



Ranglar ta'sirida yuzaga keladigan assotsiatsiya va taassirotlar.

Rang assotsiatsiyalari okibatida emotsional kayfiyat tug'diradi. Chunki bizda rang qabul qilishda ko'plab tajriba va ko'nikmalar xosil bo'lgan. Ammo bu borada biror aniq qoidaga asoslanib bo'lmasada ranglar xam xilma-xil tovushlar kabi ongimizda ma'lum assotsiativ ruxiyat chaqiradi. Masalan, olov va qon rangi - qizil, quyosh sariq, ko'k-suv, ufq, osmon, keng yashil dala, daraxtzorlar kabilar assotsiatsiya uyg'otishi mumkin.


Ranglarni bizning ko'rish organlarimizda turlarga ajratilganda ularning ko'rinishlarida issiq va sovuqlik, xo'l va quruq, uzoq va yaqinlik, sezgilari xam uyg'otadi. Ba'zi olimlarning tajribasiga ko'ra ranglarni eshitish a'zolariga xam ta'siri bo'lishi mumkin. Masalan, rus olimi L.A.Shvarsning kuzatishi bo'yicha ko'zning yashil ranga ko'nikishi (adaptatsiyasi)da eshitish qobiliyatini oshirishi, qizil rang muxiti esa aksincha susaytirishi borligi takidlanadi. Bundan tashqari ranglarning ko'rinishi "og'ir", "engil" kabi sezgilar xam uyg'otadi. Ba'zan ranglardagi "kichkiruvchi" deb xam aytiladi. Albatta bu suz obrazli atash bulib, ranglarning uta yorclinligini ta'kidlaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan ranglar xususiyatlarini va ularning ta'sirchanligini quyidagicha izoxlash mumkin.

Oq	Engil			
Sariq	-"-	Issiq	Quruk	
Zarg'aldoq	-"-	-"-	-"-	Qichkaruvchi
Qizil	Og'ir	-"-	-"-	Qichkiruvchi
Binafsha	-"-			
Ko'k	-"-	Sovuq	Nam	Tinch, oxista
Yashil		Sovuq	Xo'l	Oxista
Och ko'k	Engil	Sovuq	Xo'l	Oxista
Malla	Ogi'r	Issiq	Xo'l	Oxista
Qora	Og'ir	Issiq	Quruq	Qisik, og'ir

Bizning ko'zimiz kuzatilayotgan ob'ektdagi ranglarga, mavjud yorqinlikka moslashadi. Ya'ni ko'z to'qimasi sezgilariga ta'sir qilib, qorachik kengayishi yoki torayishi mumkin. Ayni vaqtda kontrast, yonma-yon joylashgan ranglarning uzaro ta'sirchanlikda bo'ladi. Ranglarning och, to'qligi yonidagi qushni rangni to'qligiga, yorqinligi xam o'zaro aktiv yoki passivligiga bog'lik.

Me'moriy qurilmalar ma'lum bir masofadan kuzatilar ekan, ularning ranglari o'z aktivligini yo'qotishi mumkin. Masofa uzoqlashgan sari issiq ranglar xam xavo perspektivasi qonuniyatlariga ko'ra sovuqlashib boradi. Zamonaviy arxitektor qurilma loyixasini rejalashtirishda polixromiyaning forma tashkillashuvidagi ishtirokini xisobga olgan xolda uning masofadagi urni va rang effektlaridan natijali foydalana olishi lozim. Eksterer va intererining rang ishlovini tashkil qilinishida. Me'moriy kompozitsiyaning uziga xosligi, tekisliklar, xilma-xil yuzalarning o'lcham nisbatlari va eng muximi masofaga moslanishi asosiy mavzusi xisoblanadi.



Rang echimda ikki qutbiylik, ya'ni ranglarni "sovuq", "issiq" guruxlarini tashkillashtirib kompozitsiya tuzish qulay bo'ladi. Chunki asosiylari issiq ranglarda, ikkinchi darajadagilarini esa sovuq ranglarda, bir-biriga qarama -qarshi qo'yish usuli bilan echish maksadga muvofikdir.

Agar biz rang doirasida birlashtiruvchi o'klari bir-biriga perpendikulyar qarama-qarshi to'ldiruvchi ranglardan ikki juftini tanlasak bu erda to'rtburchak-kvadrat xosil bulib, bu to'rtala rangdan o'zaro xamoxanglik xosil bo'ladi. Ya'ni: "to'rt xam oxanglik".

1. *Sariq + binafsha + qizil – zarg'aldok + ko'k - yashil;*
2. *Sariq – zarg'aldok + ko'k - binafsha + qizil + yashil;*
3. *Zarg'aldok + ko'k + qizil - binafsha + sariq - yashil.* Qolgan "to'rt xam oxanglik" juftlari to'g'ri to'rtburchak asosida tashkillashadi.

Sariq - yashil + qizil - binafsha; sariq – zarg'aldok + ko'k binafsha; sariq + binafsha + zarg'aldok + ko'k; tuzilgan bunday ranglar xamoxangligidan foydalanib me'morchilikda, rangtasvir va rang bilan bog'lik xar qanday soxalarda foydalanish mumkin. Ranglar uyg'unligini tuzish bo'yicha eng ko'p tarqalgan uyg'unlashtirish tartiblaridan biri rang uchligi ya'ni qarama -qarshi uch rangni o'zaro munosibati sanaladi.


0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39
40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59
60	61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	76	77	78	79
80	81	82	83	84	85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96	97	98	99
100	101	102	103	104	105	106	107	108	109	110	111	112	113	114	115	116	117	118	119
120	121	122	123	124	125	126	127	128	129	130	131	132	133	134	135	136	137	138	139
140	141	142	143	144	145	146	147	148	149	150	151	152	153	154	155	156	157	158	159
160	161	162	163	164	165	166	167	168	169	170	171	172	173	174	175	176	177	178	179
180	181	182	183	184	185	186	187	188	189	190	191	192	193	194	195	196	197	198	199

E.M.Lusheko (rus. olimi) o'zining "Rang nazariyasi" qo'llanmasida, Leonardo da Venchi o'zining "Madonna Litta" asarida uchlik ranglarni turlashdan moxirona foydalanilganligini isbotlashga xarakat qiladi.

- Bu asar o'zining kompozitsion o'lchamlari, tuzilishining etukligi bilangina xayratlantirib qolmay balki, nafis ranglar xam oxangligining yuqori darajada tashkillashtirilganligi bilan xam kishini lol qoldiradi. Bu bilan u yuqori emotsional ta'sirchanlikka erishgan. Bu kartina rang xududlari o'lchamlarining o'zaro moslashishi zarurligini isbotidir.

Ranglarni o'zaro moslashtirish, uyg'unlashtirish ularning yorqinligi och-to'qligi biri bilan ikkinchisining yorqinligiga ta'sir qilish yo'li bilan xamda tanlagan ob'ekt xududlariga rang maydonlarini bir-biriga nisbatini to'g'ri tanlash orqali kompozitsion echim xal qilinadi. Masalan, rassom ranglarni o'zaro o'yg'unlashgan tizimiga biror rangni yorqinligini oshirib uning o'lchamini kattalashtirib "dominant" ya'ni uni asosiy qilib ko'rsatsa u xolda kompozitsiyaning mazmuni psixologik jixatdan keskin o'zgaradi. Rang echimi bilan bog'lik bo'lgan kompozitsiya tuzilishida albatta uning temasi, joyi masofasi va funksiyaga (maqsad) qarab xal qilinadi. Uch rang xamoxangligidan foydalanishda me'mor

ranglarning och-to'qligi, yorqinligi, rang maydonlarining katta kichikligi kabi shartlarga amal qilishi lozim. Katta maydonni egallagan ammo yorqinlik darajasi pastroq rang qoniqarsiz ta'sirchanlikda bo'lishi, yoki kichik joyda joylashib uning yorqinligi oshgan, aksentlik bo'lishi xam mumkin. Oltita rangdan birikma xosil qilishda to'ldiruvchi ranglarni 2 ta uchligi yoki uch juftidan foydalanish mumkin. Katta intervallik polixromiya kompozitsiyasi tuzishda berilgan shunday tavsiyadan foydalanish mumkin. Lekin bu tavsiyani mutloq tavsiya deb tushinmaslik kerak. Polixromiya kompozitsiyalari spektr ranglarning bittasidan, uni ochartirish yoki tushintirish yo'li bilan, "monoxrom" tarzida tuzilishi xam mumkin. Bunda asosiy diqqatni kontrastlilikka qaratiladi.



Qora, kul rang, oq axromatik ranglar kombinatsiyasini zamonaviy me'morchilikda ornamentlar va ko'pincha interer, ekstererlar rang echimida xam qo'llanilmoqda bu aralashmalar xam yoqimli ton beradi. Bu rang aralashmalari axromatik ranglar uyg'unligi deb ataladi. Me'morchilikda juda keng tarqalgan usullardan biri (axromatik fonda bir yoki bir necha ranglarni ajratib kursatish) 1-aksentlik-e'tiborni tortuvchi bulib uni "xolilashgan" rang kompozitsiyasi deb ataladi. Bir yoki bir necha rangli tekisliklar axromatik fonda yaqqol ajralib

ko'rinadi. Masalan bu intererlarda katta tekisliklar axromatik rangda bo'yalib uning fonida gilam, katta bo'lmagan maxobatli devoriy surat, gobilen, mebel, kartina yoki biror informatsiya stendlar kabilar ajratib ko'rsatiladi.

II-BOB. I. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA RANGLARNING YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'TISH USULLARI.

Respublikamiz hozirgi davrda milliy taraqqiyotning eng ma'suliyatli bosqichi – ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning keskin burilish davrini boshidan kechirmoqda. XXI asr ilmiy – texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun halqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jaxon andozalari darajasiga ko'tarish zarur. Yangi pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida unumli foydalanish o'quvchi va talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish bilan birgalikda ularning taffakuri, qobiliyati, izlanuvchanligi va o'z navbatida bilimlarini oshirishning eng muhim omilidir.

Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi-o'quv jarayonini talabalarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki, ijodiy fikrlashni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Bunda o'qitishning bir nechta usullaridan foydalanib dars o'tish qo'l keladi. Quyida pedagogik texnologiya turlarini keltiramiz.

MUAMMO-ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.

MUAMMOLI VAZIYAT-talabaning ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqlarni bajarish (masala echish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatlarni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatni anglash talabalarda ishni bajarishning usuli yoki shartlari to'g'risidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg'otadi.

Muammoli vaziyat muammodan farqli ravishda unga talabani jalb etishdan iboratdir. Didaktika va psixologiyaga doir adabiyotlarda muammoli vaziyatlarning tiplarini tasniflash asosida ularning yaratishning eng muhim yo'llari va usllarini ishlab chiqilgan. M.Maxmutov muammoli vaziyat tiplarini ta'riflash bilan birgalikda ularning yaratishning qo'yidagi asosiy usullarini ifodalaydi.

Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir o'qituvchi dars jarayonida muammoli ta'lim usulini qo'llash uchun, avvalo, quyidagi ketma-ketlikni aniq bilib olishi zarur:

- muammo qo'yish;
- muammoni xarakterlovchi sharoitni o'rganish;
- qo'yilgan muammoni hal qilish;
- topilgan echimning to'g'riligini asoslash;
- muammoning echimini izlash va hal qilish jarayonida paydo bo'lgan yangi bilimlarini anglash;
- muammoni tizimlash, motivlashtirish va umumlashtirish;
- muammo echimini o'rganish, uning yanada ixcham va qulay yo'llarini izlash.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish usullarida asosiy etakchi funksiyalar:

- o'rgatuvchi: bilimlarning dolzarbligini aniqlashga asoslanadi.
- rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida faktlar orqali hodisa va qonuniylilikni ko'ra bilishni shakllantiradi.
- Tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi.

6x6 uslub. 36 o'quvchi 6 guruhga bo'linadilar. Biror masalani muhokama qiladilar. Shundan so'ng 6 ta guruh qaytadan yana 6 guruhga bo'linadilar. Guruh a'zolarining aksariyati tengdoshlarining qarashlarini bilib oladilar, avvalgi guruh tomonidan qabul qilingan xulosalar muhokama qilinadi va yakuniy xulosa chiqariladi.

Qarorlar shajarasi. Bu qiyin va turli vaziyatlarda qarorlar qabul qilishni oqillashtiruvchi texnikadir. Qarorlar shajarasi o'quvchilar bilmini jamlash, tizimga solish va baxolash imkonini beradi.

Zig-zag strategiyasi. Bilim qirralari har xil bo'lgan o'quvchilar 2-3 guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. O'quvchilar javob

yozgandan so'ng guruhlar bir-birlari bilan yozganlarini almashtiradilar va qo'shimcha yozadilar.

Insert strategiyasi. Belgi qoyib o'qish. Bu usul konspekt yozishning interaktiv usuli. V- bilaman, -o'ylaganimga zid, o'aniq, Q-yangilik,?-tushinmadim, qo'shimcha ma'lumot kerak,!- hayratlandim.

Ajurli arra. “Bir yoqda ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq” ma'osini anglatadi. Bu usulda topshiriq bo'lib-bo'lib beriladi, ekspertlar tayyorlanadi. Ular ishtirokchi guruhlarini o'qitadi va mavzuni qanday muhokama qilishni tushintirib beradi (chunki ular oldindan o'qitiladi). Bunda o'quvchilar hamkorlikda ishlashga, qisqa vaqt ichida kata hajmdagi axborotni o'zlashtirishga erishiladi.

Tabaqalashtirilgan dars usuli. Bu usul xalq ta'limi tizimining o'zgi bo'lib, qadimdan ishlatilib kelingan. U quyidagi turlarga bo'linadi. Yoshiga ko'ra , jinsiga ko'ra, qiziqishiga ko'ra, qobiliyatiga ko'ra, intellektiga ko'ra, o'zlashirish darajasiga ko'ra.....

Hamkorlik usuli. Bu usulda o'quvchilar bir-birlariga o'rgatadi, o'rganadi, jamoa bo'lib ishlaydi. Diktant, yozma ish, test, suhbat, o'zaro muloqot tarzida bir-biriga o'rgatib, sinfnig o'zlashtirish darajasi yuqori, samarali bo'lishiga erishiladi. Axil jamoa shakllanadi.

Masofali ta'lim. Interaktiv usullaring zamonaviy korinishi bo'lib, jonli muloqot, yozuv yozilishi, matbuot, telekommunikasiya orqali amalga oshiriladi. Sirtqi olimpiada, sirtan o'qish, eksternat va xokazo...

Aqliy xujum. O'quvchilar aqliga xujum qilinib, ulardan axborot to'planadi. “ Bir kalla yaxshi, o'ntasi undan a'lo” usuliga amal qilinadi. Masalan, har bir o'quvchi dorivor o'simliklar qaerda ishlatilishii yozish kerak. (5 daqiqa). Keyin ikkovlashib yozadi. (10 daqiqa), oxirida ikki guruh yozganlarini jamlaydi. Taqdimotchi xamma fikrlarni jamlab, doskaga yozib, tushintirib beradi. Qolganlar

o'zlarida bo'lmaganlarni yozadi. 1 o'quvchi 5 tagacha, 2 o'quvchi 7-8 kichik guruh 10-12, jamoa 20-30 ta dorivor o'simliklarni ishlatish soxasini ayta oladi.

Tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarida "Ranglarning inson hayotida tutgan o'rni" mavzusida kompozitsiya ishlash o'z oldiga:

- animal janrida kompozitsiya ishlash bo'yicha bilim berish;

- ijodkorlikni tarbiyalash, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish;

- bilish aktivligini oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'lida o'quvchilar bilan o'qituvchi rahbarligida bir qator o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib borish ko'zda tutiladi.

AJURLI ARRA METODI

Ajur frantsuzcha «ajour» so'zidan olingan bo'lib, «bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq» degan ma'noni anglatadi.

Bu metoddan foydalanib quyidagi bosqichlarda "Ranglarning inson hayotida tutgan o'rni" kompozitsiyasini amalga oshiriladi:

- o'quvchilardan 4-5 kishilik kichik guruhlar tashkil etdim.

- o'quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir nechta asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar)ga qirqdim;

- mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar paketi kichik guruhlarning har bir a'zosiga tarqatib chiqdim;

- kichik guruh a'zolari matnli materiallardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishdilar;

- kichik guruhlarning yaxshi o'zlashtiruvchi a'zolaridan ekspert guruhi tashkil ettirdim;

- ekspert guruhi a'zolari qo'llaridagi topshiriqlarni hamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga o'rgatish rejasini egallashdilar;

- ekspertlar o'zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytishib

o`rganganlarini boshqa sheriklariga o`rgatishdi.

O`qitishga bunday yondashilganda talaba-o`quvchilarning hamkorlikda ishlashlariga va katta hajmdagi o`quv materiallarining o`zlashtirilishiga erishiladi.

Bu metoddan foydalanuvchi pedagog talaba-o`quvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni qunt bilan o`rganishni, birgalikda muhokama etishni, savol-javob qilishni, o`rganganlarini boshqalarga o`rgatishlari zarurligini oldindan aytadi


Quyida tasviriyy san'at darslarida "Ranglarning inson hayotida tutgan o'rnini" mavzusida kompozitsiya ishlash o'quv mashg'ulotining taxminiy dars ishlanmasi va o'quv jarayonini samarali tashkil qilishning texnologik xaritasi berilgan.

DARS ISHLANMASI

MAVZU: “Ranglarning inson hayotida tutgan o’rni”

mavzusida kompozitsiya ishlash

DARSNING TUZILISHI



II-BOB. II. TASVIRIY SAN'AT TURLARI. ANIMALISTIK JANR VA UNDA “RANGLARNIN INSON XAYOTIDA TUTGAN O’RNI” MAVZUSIDA KOMPAZITSIYANING BAJARILISH BOSQICHLARI.

San`atning turlari juda ko`p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san`at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda fazoviy kenglikda yoki tekislikda (kog`oz yuzasida, devor yuzasida va xokazolarda) aks ettiradigan san`at tasviriy san`at deb ataladi.

San`atkor real borliqni o`z asarlarida tasvirlar ekan, u hech mahal uni mexanik ravishda ko`chirmaydi. Aks holda u yaratgan san`at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo`lmay qoladi. San`atkorning vazifasi oliyroqdir. U hayotda mavjud bo`lgan voqea va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o`zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, ijtimoiy hayotda sodir bo`layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o`z munosabatini bildiradi, hukmini chiqaradi. Masalan, rassom biror shaxsning rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o`ziga o`xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi.

Rassom shu ishlayotgan tasviri orqali avvalo o`zining fikr va tuyg`ularini tomoshabinga etkazishga harakat qiladi.

Tasviriy san`atning turlari.



Portret – rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo`lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san`at asarlari bizga musavvir Yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin

etadi. *Avtoportret* – portret janrining ko`rinishlaridan biri bo`lib, musavvir o`zining tashqi qiyofasini o`zi tasvirlaydi.



Manzara – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko`rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni tog`u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo`lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O`. Tansiqboyevning «O`zbekistonda mart», «Jonajon o`lka», «Mening qo`shig`im», N. Kashinaning «Tog`da bahor», Z. Inog`omovning «Arpa o`rimi», «Choyga», R. Temurovning «Bibixonimda bahor», «Ulug`bek madrasasi» asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.




Natyurmort – fransuzcha so`z bo`lib, «jonsiz tabiat» degan ma`noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o`rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo`llanadigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o`z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro`y berayotganligini ham ko`rsata oladi.



Tarixiy janr-da ishlangan suratlar orqali biz uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko'rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.



Botal janr – «botal» fransuzcha so'z bo'lib, «jang», «urush» ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M. B. Grekov, G.K. Saviskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir.



Maishiy janr - tasviriy san'atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o'zida mujas samlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XYII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari-Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo'ladi.



Marina janri- (dengiznafislik) bu janrda dengizlar, daryolar, suvlarning to'liq bo'lib toshilyotgani va dengiz hayoti tasvirlanadi. Bu janrda buyuk rassom I.K.Ayvazovskiy (1817-1900) ijod qilgan.



Animalistik – janr o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotincha «animal», «hayvonot olami» degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida kata ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarning devorlariga kiyik, qo'tos, mamontlarning suratlarini chizganlar.

Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan, XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A. Dyurerlar ishladilar. Xayvonlar obrazini rasmlarda yaratish avvalo qadimdan rivojlanib kelgan. Ovdagi yutug'ini ham chizgan rasmi bilan bog'liq deb bilganlar. Bu ularning psixologik tayyorgarligiga qarab borishi deyish mumkin. Shuning uchun ham ularda qo'rqmaslik, tabiat qoidasiga buysunish va turli tabiiy xolatlar bilan kurashga chorlagan.

Tasviriy san'at rivojlanishi davomida, uzoq yillar barcha janrlarda ijod qilish bir-biri bilan birga bordi. Shulardan ajralib chiqqan animalistik janr ham keyinchalik rivojlandi. Xayvonlar obrazini yaratish uchun uning xarakterini bilish lozim. Chunki u hayvon yoki qushlar faqat bizga gusht, tuxum, jun va boshqa

narsalargagina kerak emas. Ular tabiat muvozanatini saqlash, insonlarga har qanday damlarida hamroh bo'lish uchun yaratilgandir.

Animal janri - majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy san'at asarlaridir. Bunda asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning hatti-harakatlari, qivofalari va shu obrazlar orqali hayot voqealari aks ettiriladi. Juda ko'plab rassomlar jonvorlar rasmini chizgan ya'ni, Urta Osiyo minatyurachilarining asarlarida, Rubens, V. A. Vatagin, Ye. Rachev asarlarida hayvonlar alohida tasvirlanadi. Ko'plab suratlarda esa asarlarning bir qismi shaklida unga to'ldiruvchi bo'lib hisoblanadi.



E. Dekario



M. Toshmurodov. "Natyurmort"

Tabiatdagi narsalarni yaxshi ko'rish, ularni himoya qilish, o'rgatish, turli suratlar orqali amalga oshadi. Ko'pincha uy hayvonlari bizga doimiy hamrox, ot, quyon, sigir, echki, it, mushuk va boshqalar. Boshqa yovvoyi hayvonlar tabiatimizning ko'rki, sanitaridir. Qushlar ham bizning eng yaqin do'stlarimiz bo'lib hisoblanadi. Ularning rasmini chizishni bilish odamga zavq bag'ishlaydi..

Animalistik janrda hayvon va qushlarning tashqi ko'rinishini, xarakterli jixatlarini tasvirlanishini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Animalistik janr tasviriy san'atning nafis san'at turiga kiradi. Bu alohida tasviriy san'atning janri bo'lib, «anima»- «jonivorlar», ya'ni «hayvonot olami» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda havonot olami tasvirlanadi. Tasviriy san'at

turlarining grafika, rang tasvir, haykaltaroshlik hamda dekorativ halk amaliy san'atida ham tasvirlanadi.

Animal janr tasviri san'atning mustaqil janri bo'lsa-da, hayvonlar tasviri ba'zan maishiy, portret, natyurmort janrlarida ham aks etishi mumkin.

Hayvonlarni tasvirlashga qadimgi Misrda katta e'tibor berilgan edi. Chunki, misrliklar ko'plab ilohlarini turli xayvonlar qiyofasida tasavvur etishgan. Ularni sfinkslarda odam, turli xayvonlar va qushlar ko'rinishida tasvirlaganlar. Bu ulkan haykallarning tanasi odam, boshi biror yirtqich hayvon yoki qush ko'rinishida bo'lgan.

O'zbekistonda hayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvalgi VII— V asrlarda Afrasiyob freska va haykallarida (fil, ot, tuya, qushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligining guvoni bo'lamiz.

Sharq miniatyura rangtasviri asarlarida ham hayvonlar tasviri tez-tez uchraydi. Miniaturachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, sher, qoplon, qushlar ko'p tasvirlanadi. Kamoliddin Bexzodning "Tuyalar jangi" asari Rizo Abbosiyning "Cho'pon" miniatyurasi ham fikrimizning dalilidir.

"Ranglarning inson hayotida tutgan o'rni" kompozitsiyasining bajarilish bosqichlari.

1-bosqich: Animalistik janrda rasm ishlashda tasvirlarni kompozitsiyada to'g'ri joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Joylashtirish – chizish kerak bo'lgan shakl yoki tasvirni yuzaga to'g'ri joylashtirishdir. Kompozitsiyada joylashtirish barcha mutaxassislik va soxalar uchun katta ahamiyatga ega. Musavvir o'zi chizmoqchi bo'lgan loyihani yuzaga to'g'ri joylashtira olishi lozim.


Kompozitsiyada barcha unsurlarni to'g'ri joylashtira olmaslik natijasida asosida talabga javob bermaydigan san'at asarlar vujudga keladi. Asar mavzusidagi unsurlar tog'ri joylashsa kompozitsiya shuncha mukammal bo'ladi. Joylashtirish jarayonida kompozitsiya qonunlariga to'la rioya qilish shart. Kompozitsiya tuzilayotganda mavzu, g'oya, mantiq, joylashtirish simmetriya va assimetriya,

marom, mutanosiblik, nisbat, xarakat kompozitsiyada modul, keskin va nozik farqlanish, kompozitsiyasida stilizatsiya kabi qonunlar hisobga olingan holda ifoda etiladi.

Men “Ranglarning inson hayotida tutgan o’rni” nomli kompozitsiyani yuqorida keltirilgan qonun-qoidalarga asoslanib bajarishni boshladim. Bu bitiruv malakaviy ishimni animal janrida kamchiliklarsiz yaratishga harakat qildim. Bu kompozitsiyamda manzara, daraxtlar va ranglarni o’zida mujassam etgan tovuq qushini tasvirladim. 60x95 hajmga ega xolstni olib unga kompozitsiyaning eskizini chizib oldim. Eskizni chizish jarayonida hayvonot dunyosi qanchalik qiziqarli ekanligini va animal janrida ijod qilgan rassomlar haqida ko’p bilimlarga ega bo’ldim. Kompozitsiyamdagi tovuq qushini manzara bilan bog’laganimga sabab, qushlar olami tabiat bilan birgalikda yashashidir. Tovus qushi




2-bosqich: chizilgan eskizga dastlabki ranglarni berib chiqdim. Issiq va sovuq ranglarni bosqichma–bosqich, bir-biriga qorishtirib berdim. Kompazitsiyaning o'ng yuqori qismiga ko'k, to'q ko'k, moviy, va oq ranglarni berib, chap pastki qismiga esa sariq, zarg'aldoq, yashil, qizil, oq, sarg'ish qizil, to'q qizil, va och yashil ranglardan kamalak misolida bo'yab chiqdim. Ranglarni berish jarayonlarida qaysi rangdan keyin qaysi rangni qo'llashni o'rganib bo'yadim. Ranglarni inson hayotida qanchalik muhim ekanligini kompazitsiyamda qo'llashga harakat qildim.



3-bosqich: bu bosqichda tovuq qushiga ishlov berdim. Tovuslar (Pavo) — tovuqsimonlar turkumi, qirg'ovullar oilasiga mansub qushlar urug'i. 2 turi bor. Oddiy tovuq tanasining uzunligi 100—125 sm, dumi 1,5 sm gacha. Og'irligi 4—4,2 kg . Boshi, bo'yni va ko'kraging bir qismi yashil, orqasi ko'k, tanasining osti qora. Hindiston va Shri Lankada tarqalgan. O'rmonning butazorli qismini xush ko'radi. Uyasini yerda chukurcha shaklida yasaydi. 4—7 ta tuxum qo'yib, urg'ochisi 30 kun bosadi.

Yashil qanotli tovuq Hindixitoy va Indoneziyada tarqalgan. Butazorlar, dare qirg'oqlari va boshqa yerlarda yashaydi. Tovus o'simlik, hasharot va mayda umurtqalilar bilan oziqlanadi. Go'shti mazali. Oddiy tovuq tutqunlikdayaxshi

ko'payadi. Tovus tovuqsimonlarning yirik, chiroyli va jozibador vakillaridan. Hayvonot bog'larida boqiladi. Shu ma'lumotlarga asoslanib tovusning bosh va boyin qismlarini bo'yab chiqdim. Bosh va bo'yin qismlariga ko'k, oq, qora, yashil va sariq ranglardan ishlov berdim. So'ngra patlarining ostki qismiga qora fon berib, patlarini issiq ranglardan foydalangan holda bo'yab chiqdim. Patlariga zarg'aldoq, ko'k, sariq, yashil, och yashil va sarg'ish qizil ranglar berib bo'yab chiqdim.



4-bosqich: Bu bosqichda esa tovus qushining orqa yuqori qismiga unga chiroy berib turishi uchun manzarali daraxtning bargli shohlarini ishladim va uni atrof muhitdagi issiq va sovuq ranglardan foydalangan holda ranglar orqali tasvirlashga harakat qildim. Bo'yash jarayonida shunga asoslandimki, ranglarni bir-biriga bog'lash orqali insonga zavq bag'ishlovchi tasvir bajariladi.



5-bosqich: Ma'lumki, tasvir ishlashni rang vositasida ishlash jarayonida atrof-muxit holati muxim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan obektga yorug'lik manbai atrofdagi boshqa buyumlarni ta'siri kuzatiladi. Ular o'z rangi , tusi bilan o'zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo'lishi mumkin. Rassom ana shunday o'zgarishlarni chuqur anglab, taxlil qilib, so'ng ifoda etishi kerak. Aks xolda tasvir jonsiz, ta'sirsiz chiqib qoladi, o'rganayotganlar uchun bunday holatlarni xisobga olib tasvirlashda hayvonot olami juda qo'l keladi. Chunki unda hayvonlardagi soya, shulalar, rang tuslarining uyg'inligi ifodaviyligi yaqqol ko'rinib turadi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko'rsatishda xizmat qiladi. Tasvirlanayotgan obektning qanday xolatda aks ettirish ham uning yorug' yoki qoronguligi nur derazadan qay holatda va burchak ostida tushayotgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun har bir talaba, o'quvchi dars jarayonlarida olingan bilim va ko'nikmalariga asoslanib ushbu tasviriy san'atdagi janrlar orqali mahoratini tasvirlangan ishlarida ko'rsatishi lozim.



Ranglarning inson hayotida tutgan o'rni

XULOSA

Ma'lumki, go'zallik, nafosat sirlarini o'rganish orqali insonlarga xos oliy fazilat-ezgulikka yetaklash borasida boshqa biror soha o'qituvchisi tasviriy, amaliy san'at mutaxassisi bera oladigan vazifani bajara olmaydi. Darhaqiqat, o'quvchi yoshlarni estetik va ahloqiy kamolatga yetkazish, ularga har tomonlama ma'naviy ozuqa berishda tasviriy amaliy san'at mutaxassisining imkoniyatlari keng.

Mamlakatimiz kelajagi uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturning amalga oshirilishi juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki ta'lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir.

Yoshlarni estetik tarbiyalash, ularning rivojlanishida tasviriy sanatning roli va o'rni, uning hozirgi zamon kishisi xulqiga, his-tuyg'ulariga, fikr o'ylariga ta'sir kuchayib borayotganligi bilan belgilanadi. Insonning hayotiy turmush tarzida, axloqiy va ijtimoiy hayotida, ma'naviy chehrasining tabiiy shakllanishida aks etadigan holatlar tizimida – ma'naviy tarbiyaning asosiy kategoriyalari sifatida aks etadi. Go'zallikni ko'ra bilish, his qilish, did bilan baho berish - hissiy ko'nikma hosil qilishga olib keladi. Narsalarning bir-biriga bog'liqligi, ovozlarning tabiat bilan uyg'unlashib ketishi, ranglarni o'zaro uzviy ohangdorligi – go'zallik negizidir. Inson ichki dunyosining mukamalligi didining yuksakligi – shaxsni hissiy go'zallikka intiluvchan etib tarbiyalaydi. Mamlakatimiz taraqqiyotida mustaqqillik ruhi tobora mustahkamlanib, barcha sohalarda jahon andozasiga mos islohotlar amalga oshirilmoqda.

Rangtasvir - tabiat, jamiyat, umumiy insoniyat turmush tarzini, xarakterini bilishda bo'yoqlar benihoyat katta rol o'ynaydi.

Ranglar hayotdagi har bir holatni ko'rish xarakterini ochib beribgina qolmay, uning siru asrorlarini ifodalab beruvchi ishonchli vositadir. Ana shuning uchun ham rangtasvir tasviriy san'atning o'ziga xos alohida bir turi hisoblanadi.

Tabiat va hayotdagi nafislik, go'zallik sirlarini rangtasvir san'ati darajasida boshqa biror-bir soha ochib bera olish imkoniyatiga ega emas.

- xomaki rasmlar ishlash, eskizlar asosida kompozitsiyalar tuzish kabilar.

Rassom-pedagog tasvir san`ati borasida ham har jihatdan savodxon bo`lishlari bilan birga bu soha sirlarini qiziqarli, sodda, mazmunli holda, o`quvchi yoshlarga o`rgata olish qobiliyatlariga ega bo`lishi kerak.

Men bitiruv malakaviy ishimni bajarish jarayonlarida shuni anglab yetdimki, "Ranglarning inson hayotida tutgan o`rni" asrlar mobaynida o`ta muhim va foydali o`rinlarni egallaganligini tushinib yetdim. Ranglar insonlarga zavq bag`ishlabgina qolmay, insonlarni da`volaydi ham. Inson qay rangni yoqtirmasin, rang borasida ma`lumotlarga ega bo`lmasin, go`zallik shaydosidir. Men ushbu bitiruv malakaviy ishim orqali ko`p bilimlarni oldim. Tabiat bilan hamisha xamohang bo`lib keluvchi ranglar, tasviriy san`atda ham o`z aksini topgan. Rang tasvirda buyuk rassomlarimiz turli ranglar go`zal, bebaho va asrlar davomida o`chmas san`at asarlar yaratib kelishgan. Men bitiruv malakaviy ishimda bu asarlardan na`munalar keltirganman.

ILOVALAR.
RANGLAR JILG'ASI.







FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, siyosat, mafkura. «O'zbekiston» nashriyoti. T.,1993.
2. Karimov I.A. Milliy mafkura haqida.– T., 2000.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T., 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi «O'zbekiston» nashriyoti. T.1991.
5. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Ta'lim to'g'risidagi», «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi to'g'risida» «O'zbekiston» nashriyoti. T.,1998.
6. Atamuradov S., Xusanov S., Rametov J. Ma'naviyat asoslari.– T.,2000.
7. Erkaev A. Ma'naviyat – Millat nishoni. – T.,1997.
8. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari.T.1998.
9. Abdurahmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya.- Toshkent, 1995.
- 10.Boymetov B. “Qalamtasvir”. Darslik 1 - qism. Toshkent, 2006.
- 11.Boymetov B. “Qalamtasvir asoslari”. O'quv qo'llanma. Toshkent, 1999.
- 12.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T., 2002.
- 13.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (2-qism). T., 2003.
- 14.Abdirasilov S.,Tolipov N. “Rangtasvir” Toshkent , 2005.
- 15.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.
- 16.Abdurahmonov G.M. Rangtasvir va kompozisiya.- Toshkent, 1995.
- 17.Abdirasilov S.,Tolipov N. “Rangtasvir” Toshkent , 2005.
18. B.Tojiev " Rangtasvir" fanidan ma'ruzalar matni. (Nizomiy nomli TDPU) 2000 yil Toshkent.

Elektron ta'lim resurslari:

1. [www. tdpu. Uz](http://www.tdpu.Uz)
2. www. pedagog. Uz
3. www. Ziyonet. Uz
4. www. adu. Uz
5. [www. nbgf. intal. uz.](http://www. nbgf. intal. uz)